**O’ZBEKISTON RESPUBLIKASI AXBOROT TEXNALOGIYALARI VA TELEKOMUNIKATSIYALARNI RIVOJLANTIRISH VAZIRLIGI**

**MUHAMMAD AL-XORAZMIY NOMIDAGI TOSHKENT AXBOROT TEXNOLOGIYALARI UNIVERSITETI**

**Axborot kommunikatsion texnologiyalari sohasida Kasb ta’limi fakulteti**

**5350600-"Axborotlashtirish va kutubxonashunoslik" yo‘nalishi**

**Himoyaga ruhsat**
**Kafedra mudiri**
_______________
2018 y. "____" ____

# INTELLEKTUAL MULK OBYEKTLARINI KATALOGLASHTIRISH USULLARI VA DASTURIY TA’MINOTI

Mavzusida

## BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Bitiruvchi _____________ Farhodov Z.
imzo
Rahbar _____________ Rahmatullayev M.
imzo
Taqrizchi _____________ Xaydarova M.
imzo
HFX bo’yicha maslahatchisi _____________ Haydarbekova M
imzo

**TOSHKENT – 2018**

Ushbu bitiruv malakaviy ishida O'zbekiston Respublikasi Intellektual mulk agentligi obyektlari va kitoblarining elektron katalogi yaratildi. Elektron katalogni yaratishda chet el mamlakatlari va O'zbekistonda yaratilgan elektron kataloglar qiyosiy tahlillari o'rganildi. Elektron katalog yaratishning algoritmi, tashkiliy va funksional tuzilmasi ishlab chiqildi.

В этом выпускной квалификационной работе был создан электронный каталог объектов и книг Агентства интеллектуальной собственности Республики Узбекистан. При создании электронного каталога был изучен и сделан сравнительный анализ электронных каталогов, созданных зарубежом и в Узбекистане. Разработаны алгоритмы, сформированы организационная и функциональная структура электронного каталога.

In this qualifying work an electronic catalog of objects and books of the Agency of Intellectual Property of the Republic of Uzbekistan was created. When creating the electronic catalog, a comparative analysis of electronic catalogs created abroad and in Uzbekistan was made. Algorithms are developed, organizational and functional structure of the electronic catalog is formed.

MUNDARIJA:


| | | |
|---|---|---|
| **Kirish** | | 7 |
| **I BOB.** | **INTELLEKTUAL MULK OBYEKTLARINING ELEKTRON KATALOGINI YARATISH USULLARI VA DASTURIY TAHLILI** | 10 |
| 1.1. | Intellektual mulk obyektlari haqida tushuncha | 10 |
| 1.2. | Jahonda intellektual mulk obyektlarining kataloglashtirish usullari tahlili | 11 |
| 1.3. | O’zbekistondagi intellektual mulk obyektlari hujjatlarining tahlili | 16 |
| | 1-bob bo’yicha xulosa | 19 |
| **II BOB.** | **INTELLEKTUAL MULK OBYEKTLARINING ELEKTRON KATALOGINI YARATISH ALGORITMI VA KATALOGLASHTIRISH** | 20 |
| 2.1. | Intellektual mulk agentliklari obyektlarining metama’lumotlari tahlili | 20 |
| 2.2. | Intellektual mulk obyektlarning elektron katalogini yaratishga mo’ljallangan ishchi sahifani yaratish algoritmi | 24 |
| 2.3. | Intellektual mulk obyektlariga oid kitoblarni kataloglashtirish….. | 31 |
| | 2-bob bo’yicha xulosa. | 33 |
| **III BOB.** | **INTELLEKTUAL MULK OBYEKTLARINI KATALOG-LASHTIRISHNING FUNKSIONAL TUZILMASI, TASHKILIY TUZILMASI VA FOYDALANUVCHI YO’RIQNOMASI** | 34 |
| 3.1. | Intellektual mulk obyektlarining elektron katalogini yaratishga mo’ljallangan tizimning funksional tuzilmasi | 34 |
| 3.2. | Intellektual mulk obyektlarini kataloglashtirishning tashkiliy texnologik tuzilmasi | 37 |

3.3. Foydalanuvchi yo’riqnomasi 41

3-bob bo’yicha xulosa 45

**IV BOB. AXBOROT KUTUBXONA MUASSASALARIDA TEXNIKA XAVFSIZLIGI VA MEHNAT MUHOFAZASI** 46

4.1. Kompyuter xonalarida ish joyini tashkil etilishida qo’yilgan asosiy talablar 46

4.2. Favqulotda vaziyatlar sodir bo’lish ehtimolligini oldindan bilish va baholash 49

4.3. Ekologik barqarorlik va rivojlanish 53

4-bob bo’yicha xulosa 61

**Xulosa** 62

**Foydalanilgan adabiyotlar** 63

## Kirish.

**Mavzuning dolzarbligi.** Mamlakatimiz mustaqillikka erishgan dastlabki kunlardanoq fan taraqqiyotini va innovatsion texnologiyalarni rivojlantirishga, intellektual mulk huquqini ro'yobga chiqarishga va himoyasini ta'minlashga doir huquqiy mexanizmlarni shakllantirish masalalariga alohida e'tibor qaratila boshlandi. Pirovardida, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1992-yil 8-avgustdagi "Ilmiy va innovatsion faoliyatni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash to'g'risida"gi Qaroriga muvofiq, ilmiy-texnik salohiyatni yanada mustahkamlash, uni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning eng dolzarb masalalarini hal etishga safarbar etish hamda hamdo'stlik mamlakatlarida birinchilardan bo'lib innovatsion faoliyatni faollashtirish choralari belgilandi. O'zbekiston 1991-yildan buyon butunjahon intellektual mulk tashkilotining a'zosi hisoblanadi. Butunjahon intellektual mulk tashkiloti bugungi kunda 180 dan ortiq davlatni o'zida birlashtirgan xalqaro tashkilotdir. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011-yil-24 may kungi «O'zbekiston Respublikasining Intellektual mulk agentligini tashkil etish to'g'risida»gi Qarori bilan intellektual mulk sohasida bir-biridan mustaqil faoliyat yuritib kelgan Davlat patent idorasi hamda O'zbekiston mualliflik huquqini himoya qilish respublika agentligi negizida O'zbekiston Respublikasi Intellektual mulk agentligi tashkil etildi. Natijada xalqimizning ilmiy-texnikaviy ijod erkinligidan samarali foydalanishi uchun yanada kengroq sharoitlar yaratildi. Intellektual mulk sohasida yagona davlat siyosatini yuritish, yagona yondashuvni ta'minlash, mamlakatimizning ushbu sohadagi xalqaro shartnomalarini tayyorlash va hayotga tatbiq etish bo'yicha yaxlit tizim vujudga keldi. O'zbekiston Respublikasi Intellektual Mulk Agentligi to'g'risidagi Nizomi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016-yil 24-noyabrdagi 394-sonli qarori bilan tasdiqlangan. O'zbekiston Respublikasi Intellektual Mulk Agentligi tarkibiy tuzilmasi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 20 oktyabrdagi PQ-2637-sonli "O'zbekiston Respublikasining Intellektual Mulk Agentligi faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori bilan tasdiqlangan. O'zbekiston Respublikasining

Intellektual mulk agentligiga ixtirolar, sanoat namunalari, foydali modellar, tovar belgilari hamda intellektual mulkning boshqa obyektlarini himoya qilish, ular bo'yicha huquq egalarini himoya qilish, ishlab chiqarishga innovatsion texnologiyalar va ixtirolar, ilmiy-texnik va sanoat ishlanmalarini, seleksiya yutuqlarini, badiiy-konstruktorlik va boshqa turdagi ijodiy ishlarning keng joriy etilishiga ko'maklashish, shuningdek, intellektual mulk ob'ektlarini ekspertiza qilish va ularni davlat ro'yxatidan o'tkazish, intellektual mulkni himoya qilish masalasida yagona pozitsiyani ishlab chiqish va bu sohada xalqaro miqyosda O'zbekiston Respublikasi manfaatlarini himoya qilish hamda tegishli xalqaro va mintaqaviy tashkilotlar faoliyatida ishtirok etishni ta'minlash kabi bir qator vazifalar yuklatildi. Hozirgi kunda Intellektual mulk agentligi ARMda koplab kitoblar, intellectual mulk obyektlari mavjud. Bu kitoblarning, obyektlarining elektron katalogini yaratish orqali foydalanuvchilarga kutubxona resurslaridan tez va oson foydalanishlari uchun zamin yaratib beramiz.

Yuqoridagilarni hisobga olgan holda tanlangan bitiruv malakaviy ishi mavzusi dolzarb sanaladi va uni amalga joriy etish joiz.

**Ishning maqsadi va vazifalari.** Intellektual mulk agentilgi ARMda avtomatlashtirishgan tizimning yangilangan shaklini o'rnatish, intellektual mulk obyektlarini elektron katalogini yaratish va foydalanuvchiga ma'lumotlarni tezkor topish usullarini ishlab chiqish.

Yuqoridagi maqsaddan kelib chiqib quyidagi vazifalar belgilab olindi:

-Intellektual mulk obyektlarining elektron katalogini yaratish usullari va dasturiy ta'minotlarini tahlil qilish;

-Intellektual mulk obyektlarining elektron katalogini yaratish algoritmi va katologlashtirish usullarini ishlab chiqish;

-Intellektual mulk obyektlariga tegishli kitoblarning elektron katalogini yaratish;

-Intellektual mulk obyektlarini katologlashtirishning tashkiliy tuzilmasi, funksional tuzilmasi va foydalanuvchi yo'riqnomasini ishlab chiqish.

**Ishning obekti va predmeti.** Ishning obyekti - Intellektual mulk agentilgi obyektlarining va ularga oid kitoblarining kataloglashtirish jarayonlari.

Predmeti esa intellektual mulk obyektlarining elektron katalogini yaratish usullari va vositalari.

**Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati va tatbiqi.**
BMIda avtomatlashtirilgan axborot kutubxona tizimida ma'lumotnomalar yaratish va foydalanishni o'rgangan holda kataloglashtirishni rivojlantirishga ta'sir etuvchi omillar ko'rsatilgan. Ishda elektron katalog ma'lumotlar bazasini shakllantirish rivojlantirishga ta'sir etuvchi omillar, ulardan samarali foydalanish yo'llari va takomillashtirish bo'yicha takliflar berilgan. BMIdagi tadqiqotlarni axborot kutubxona muassasalari va kutubxonalar faoliyati samaradorligini oshirishga hamda Respublika OO'Ylarining ARMlari yig'ma elektron katalogini shakllantirishga tadbiq qilish mumkin.

**Ishning tuzilishi va tarkibi.** Mazkur bitiruv malakaviy ishi kirish, 4 ta bob, xulosa va takliflar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yhatidan tashkil topgan.

BMI birinchi bobi "Intellektual mulk obyektlarining elektron katalogini yaratish usullari va dasturiy tahlili" deb nomlangan va bu yerda jahonda intellektual mulk obyektlarini kataloglashtirish usullari, O'zbekistonda intellektual mulk obyektlariga oid hujjatlarning tahlili to'grisida ma'lumotlar berilgan.

BMI ikkinchi bobi intellektual mulk obyektlarining elektron katalogini yaratish algoritmi va katologlashtirish deb nomlangan va bu yerda intellektual mulk agentliklari obyektlarining metama'lumotlar tahlili, intellektual mulk obyektlarining elektron katalogini yaratishga mo'ljallangan ishchi sahifani yaratish algoritmi, intellektual mulk obyektlariga oid kitoblarini kataloglashtirish haqida ma'lumotlar berilgan.

BMI uchinchi bobi intellektual mulk obyektlarini katologlashtirishning tashkiliy tuzilmasi, funksional tuzilmasi va foydalanuvchi yo'riqnomasi deb nomlangan va bu yerda intellektual mulk obyektlarining elektron katologini yaratishga mo'ljallangan tizimning funksional tuzilmasi, intellektual mulk

obyektlarini katologlashtirishning tashkiliy texnologik tuzilmasi va foydalanuvchi yo'riqnomasi haqida ma'lumotlar berilgan.

# I BOB. INTELLEKTUAL MULK OBYEKTLARINING ELEKTRON KATALOGINI YARATISH USULLARI VA DASTURIY TAHLILI

## 1.1. Intellektual mulk obyektlari haqida tushuncha.

Intellektual mulk – bu insonning ijodiy faoliyati natijalariga bo'lgan huquqi, shaxsning o'ziga qarashli bo'lgan mol-mulkka o'z xohishi bilan va o'z manfaatlarini ko'zlab egallik qilish, undan foydalanish va uni tasarruf etish, shuningdek o'zining mulk huquqini, kim tomonidan bo'lmasin, har qanday buzishni bartaraf etishni talab qilish huquqi sifatida belgilaydi. Har bir davlatda yangi ixtirolar, kashfiyotlar, yangi loyihalar, yangi innavatsion g'oyalar bo'ladi va bularning hammasi mualliflik huquqini talab qiladi. Intellektual mulk obyektlarini bir necha turi mavjud.

Ilmiy, adabiy va badiiy faoliyat natijalari, ixtirolar, sanoat namunalari, foydali modellar, tovar belgilari (innovatsiya texnologiyalari, ilmiy-texnika va sanoat ishlanmalari), seleksiya yutuqlari, badiiy-konstruktorlik va boshqalar, ijodiyot ishlari intellektual mulk obyektlari hisoblanadi.

Xalqaro huquqiy hujjatlarda, milliy qonunchiligimizda ham intellektual mulk obyektlariga nisbatan mutlaq huquqlar eng muhim fuqarolik huquqlari sifatida tan olinadi. Har bir inson o'zi muallifi hisoblangan ilmiy, adabiy, badiiy va faoliyat natijasi bo'lgan boshqa intellektual mulk obyektlariga nisbatan ma'naviy va moddiy manfaatlarining muhofaza qilinishi huquqiga egadir. Bugungi kunda intellektual mulk sohasi har bir mamlakat iqtisodiyotining muhim qismiga aylanmoqda. Shuning uchun intellektual mulk muhofazasini yanada takomillashtirish ustuvor vazifalardan hisoblanadi. Bunda intellektual mulkni huquqiy muhofaza qilish maqsadida yagona davlat siyosatini olib borish va amalga oshirish muhim o'rin tutadi. Ana shu ma'noda agentlik Butunjahon Intellektual mulk tashkiloti, Yevropa va Yevroosiyo patent idoralari bilan hamkorlik qilib kelmoqda. Hozir har qanday davlatning qonun hujjatlarida intellektual mulk

obyektlari muhofazasiga qaratilgan me’yorlar mavjud. Milliy qonunchiligimiz ham bundan mustasno emas. «O’zbekiston Respublikasining Intellektual mulk agentligini tashkil etish to’g’risida»gi Qaror qabul qilinganidan keyin, bir qator qonun hujjatlariga o’zgartish va qo’shimchalar kiritildi. Intellektual mulk sohasidagi qoida va atamalarni bir xilda qo’llash, yuridik va jismoniy shaxslarni ortiqcha moliyaviy xarajatlardan xalos etish, intellektual mulk obyektlari egalarining huquqlarini muhofaza qilish usullari kengaytirildi, bu boradagi mehanizmlar xalqaro andozalarga moslashtirildi.

## 1.2. Jahonda intellektual mulk obyektlarining katologlashtirish usullari tahlili.

Butunjahonda intellektual mulk obyektlari uchun ko’plab tashkilotlar ish olib borishadi. Bu tashkilotlarda butun dunyo bo’yicha qilingan yangiliklar ma’lumotlar bazalarida, o’z elektron kutubxonalarida saqlanadi. Bunday tashkilotlarning bir nechtasini keltirib o’tamiz.

**WIPO** (World Intellectual Property Organization – Butunjahon Intellektual Mulk Tashkiloti[1]).

Butunjahon Intellektual Mulk Tashkiloti intellektual mulkni muhofaza qilish sohasida eng qadimgi xalqaro tashkilotdir. U 1967-yilda “ijodiy faoliyatni tag’batlantirish, butun dunyoda intellektual mulkni himoya qilishni rag’batlantirish” uchun yaratilgan. Butunjahon Intlellektual Mulk Tashkiloti hozirgi kunda 191 ta davlatga ega, 26 ta xalqaro shartnomalarni boshqaradi va uning markazi Shvetsariyaning Jeneva shahrida joylashgan. Uning hozirgi bosh direktori Frensis Gurri bo’lib, u 2008-yil 1-oktyabr kuni o’z lavozimini egallagan. Bu tashkilotlarning bir qator o’zining nizomiy ma’muriy maqsadlari bor. Dunyo bo’ylab intellektual mulkni muhofaza qilishni davlatlarning hamkorligi va zarurat tug’ilsa, boshqa har qanday xalqaro tashkilot bilan hamkorlikda targ’ib qilish, butun dunyoda intellektual mulkni himoya qilishni takomillashtirishga qaratilgan chora-tadbirlarni ishlab chiqishda ko’maklashish va ushbu sohadagi milliy qonunchilikni uyg’unlashtirish, intellektual mulkni himoya qilish bo’yicha xalqaro

[1] http://wipo.int

shartnomalar tuzish, intellektual mulk sohasida texnik va huquqiy yordam, axborot to'plash va tarqatish, tadqiqotlarni o'tkazish va ularning natijalarini e'lon qilish, intellektual mulkni xalqaro muhofaza qilishga xizmat qiladigan xizmatlarning ishlashini ta'minlashga doir bir qator vazifalari bor. Bu tashkilotda intellektual mulk obyektlarining koha dasturida qilingan elektron bazasi bor. WIPO intellektual mulk (IP) tizimi bo'yicha ma'lumotlar, shuningdek, ampirik tadqiqotlar, hisobot va IP bo'yicha aniq ma'lumotlar bo'yicha dunyodagi eng mukammal manba hisoblanadi.

Butunjahon intellektual mulk agentligining o'z sayti bor. Bu saytni interfeysi quyidagicha ko'rinishga ega.




1.1-rasm. http://wipo.int sayt interfeysi.

Ko'rib turganimizdek dastur interfeysida tashkilot haqida barcha ma'lumotlar keltirilgan. Ushbu sahifa bizning noyob manbalar to'plamimiz va ma'lumotnoma materiallarimiz uchun eshikdir. Barcha adabiyotlar va ma'lumotlar, to'plamlar onlayn ravishda taqdim qilinadi. Bu yerdan tashkilot haqida barcha ma'lumotlarga ega bo'lishimiz, elektron bazalariga murojat qilishimiz mumkin. Bu esa foydalanuvchilarga intellektual mulk obyektlaridan, hujjatlaridan foydalanishda qulayliklarga olib keladi. Butunjahon intellektual mulk agentligi ma'lumotlar



bazasiga quyidagicha murojaat qilishimiz mumkin.

1.2-rasm. http://wipo.int interfeysidan kutubxona tizimiga o'tish.

Bu kutubxona to'plamida intellektual mulkning barcha jihatlarini qamrab oluvchi 35000 dan ortiq monografiya va 300 dan ortiq davriy nashrlar mavjud.




1.3-rasm. http://wipo.intdagi koha kutubxona tizimi

Butunjahon intellektual mulk tashkilotlarining onlayn tizimdagi elektron kataloglari bazasi keltirib o'tilgan. Bu elektron kataloglar bazasi koha dasturiy tizimida yuritiladi. Bu yerdan biz intellektual mulk obyektlarini sarlavha, avtor, ISBN va bir nechta ko'rsatkichlar bilan qidirishimiz mumkin bo'ladi.

Koha dasturi ochiq kodli dasturiy kutubxona tizimi hisoblanadi. Bu dastur 1999-yilda Yangi Zelandiyaning Kapito Horrowhenue kutubxonasi uchun ishlab chiqilgan va birinchi marta 2000-yil yanvarda sinov sifatida ishlatib ko'rilgan.

1.1-jadval. Koha dasturining ishlash tizimi.

| | |
|---|---|
| 1 | Linux, Unix, Windows va MacOS tizimlarida ishlaydi |
| 2 | Web brouzerda ishlaydi |
| 3 | To'liq MARC21 va UNIMARC formatlarida ishlaydi |
| 4 | Hamma foydalanuvchilar uchun oddiy aniq qidiruv tizimi |
| 5 | Export va Import qiladi ISO2709 |
| 6 | 50000 dan ortiq kutubxonalar foydalanadi. |

Bu jadvalimizda koha dasturining ishlaydigan tizimlari, qaysi formatlarda yaratilganini, qidiruv tizimi va hozirgi kunga qadar bu tizimdan foydalanib kelayotgan kutubxonalar soni ko’rsatib o’tilgan.




Koha dasturining interfeysi quyidagicha hisoblanadi.

1.4-rasm. Koha interfeysi

**Clarivate Analytics**[2] - ilmiy tadqiqotlar, patent tahlillari va normativ standartlarga, farmatsevtika va biotexnologiya aql-zakovatiga, tovar belgilarini muhofaza qilishga, tovar muhofazasiga va intellektual mulkni boshqarishga yo’naltirilgan obuna xizmatlaridan iborat to’plamga egalik qiluvchi va faoliyat ko’rsatuvchi mustaqil kompaniya. Xizmatlar asosan analitikaga qaratiladi. 4000 dan ortiq xodimlar 100 dan ortiq mamlakatlarda faoliyat yuritadi. Kompaniyaning axborot tizimlari quyidagilar: Web of Science, Cortellis, Derwent Innovation, Derwent Jahon Patentlari Index, CompuMark, MarkMonitor, Techstreet, Publons, EndNote va boshqa axborot tizimlari.




1.5-rasm. http://clarivate.com interfeysi.

[2] http://clarivate.com

**Derwent Jahon Patent indeksi**.[3] Derwent World Patents Index (DWPI) - dunyodagi 44 ta patent beruvchi tashkilotdan patentga talabnoma va grantlarni o'z ichiga olgan ma'lumotlar bazasi. Tahririyat tomonidan ingliz tilida tuzilgan ma'lumotlar bazasi patentda tavsiflangan ixtironing mohiyati va ulardan foydalangan holda qisqa ma'lumot beradi va foydalanuvchi tomonidan tegishli patent hujjatlarini olish imkonini beruvchi nomaqbul texnologiya toifalariga kiritiladi. Ma'lumotlar bazasidagi har bir yozuv patent oilasini belgilaydi, butun ixtiro muhofazasi sifatida turli patent idoralarida saqlanadigan patent hujjatlarini guruhlash butun dunyoda so'raladi. Har bir patent oilasi, odatda ixtironing birinchi nashr etilgan namunasi bo'lgan asosiy patent atrofida to'plangan. Barcha keyingi arizalar asosiy patentga qaytariladi va unga tenglashtirilgan patentlar deb yuritiladi. Shu asosda, ma'lumotlar bazasida o'nlab million ixtiroga to'g'ri keladigan taxminan 20 million ixtiro mavjud bo'lib, har yili deyarli bir million yangi ixtiroga qo'shiladi. 2008 yildan boshlab, asosiy patent identifikatori raqamining formati o'zgartirildi, yiliga 3,6 mln.ga qadar yozuvlar qo'shilishi mumkin, chunki avvalgi format faqatgina yiliga 1 mln. Bu har yili taqdim etilayotgan noyob patentlarning barqaror o'sishiga bog'liq. 96000 ta Clarivate Analytics tomonidan haftada bir marta ishlab chiqarilgan patentlar, 36 million patentga ega oilalalar, 75 million patent hujjati jamlangan. 900 dan ortiq texnik va patentga oid muharrirlar yiliga 3 milliondan ortiq tezislarni yozadilar.

**Derwent Patents Citation Index (Derwent PCI)** - 6 ta asosiy patent idorasidan olingan patentlardagi elektron ma'lumotlar bazasi. Patentga talabnomani o'rganib chiqishda ekspert tomonidan ko'rib chiqilgan atamalar, patentlar va adabiyotlar haqida batafsil ma'lumot beradi. Derwent PCI - texnologiyaning barcha sohalarida bir nechta manbalardan olingan patentlarni keltiradigan yagona ma'lumotlar bazasi. 1997-yil may oyiga qadar 16 patent idorasiga ekspertlar va mualliflarning taqdimoti keltirildi. Ma'lumotlar bazasida 1970-yillarga qadar patentlar arxivlari ham mavjud. Derwent PCI, Derwent jahon patentlar indeksidan patent patentlarining oilalari va barcha ekspertlar tomonidan

keltirilgan patentlar va adabiyotlar, shuningdek, patentlarga asoslanib murojatnomalar mavjud bo’lgan barcha mavjud bibliografik ma’lumotlarni o’z ichiga oladi. Har haftada oltita yirik patent idorasidan taxminan 45 000 ta arizaga yangi havola qilingan murojaatlar qo’shiladi.

## 1.3. O’zbekistondagi intellektual mulk obyektlari hujjatlarining tahlili.

O’zbekistonda Milliy patent tizimi yaratilish tarixiga nazar soladigan bo’lsak, 1992-2011-yillar intellektual mulk obyektlari muhofazasi bilan shug’ullanuvchi vakolatli organlar davlat patent idorasi va mualliflik huquqi agentligi tashkil etildi, jahon patent tizimi amaliy ish tajribasini o’rganish va iqtisodiy oyoqqa turish yillari bo’ldi. Ushbu davrda bevosita intellektual mulk obyektlarini huquqiy jihatdan muhofaza qilish sohasidagi qonunlar qabul qilindi, bular: Tovar belgilari, xizmat ko’rsatish belgilari va tovar kelib chiqqan joy nomlari", "Ixtirolar, foydali modellar va sanoat namunalari", "EHM uchun dasturlar va ma’lumotlar bazalari", "Seleksiya yutuqlari", "Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar", "Integral mikrosxemalar topologiyalarini huquqiy muhofaza qilish". Shuningdek, butunjahon intellektual mulk tashkilotiga va intellektual mulk sohasidagi 10 dan ortiq xalqaro shartnomalarga a’zo bo’ldi, hamda xalqaro hamkorlikni rivojlantirdi. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011-yil 24-maydagi "O’zbekiston Respublikasining Intellektual mulk agentligini tashkil etish to’g’risida"gi Qarori bilan Davlat patent idorasi va Mualliflik huquqi bazalarida O’zbekiston Respublikasi Intellektual mulk agentligi tashkil etildi. Natijada xalqimizning ilmiy-texnikaviy ijod erkinligidan samarali foydalanishi uchun yanada kengroq sharoitlar yaratildi. Intellektual mulk sohasida yagona davlat siyosatini yuritish, yagona yondashuvni ta’minlash, mamlakatimizning ushbu sohadagi xalqaro shartnomalarini tayyorlash va hayotga tatbiq etish bo’yicha yaxlit tizim vujudga keldi. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 20-oktyabrdagi PQ-2637-sonli "O’zbekiston Respublikasining Intellektual mulk agentligi faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari to’g’risida"gi qaroriga muvofiq O’zbekiston Respublikasi intellektual mulk agentligi tarkibiy tuzilmasi hamda O’zbekiston

Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016-yil 24-noyabrdagi 394-sonli qarori bilan O'zbekiston Respublikasi Intellektual mulk agentligi to'g'risidagi Nizomi tasdiqlandi. Ushbu qarorning asosiy maqsadi intellektual mulk obyektlarini xalqaro norma va standartlarga muvofiq huquqiy himoya qilish tizimini yanada takomillashtirish, unga xos bo'lmagan va umrini o'tab bo'lgan vazifalarni bekor qilish, shuningdek O'zbekiston Respublikasining Intellektual mulk agentligi faoliyatiga zamonaviy interfaol davlat xizmatlarini joriy etishdan iborat.

1966-yilda yig'ilishi boshlangan va tarkibidagi patentga oid hujjatlar hajmi va komplektlanish ko'lami bo'yicha eng yirik patent fondlaridan biriga aylangan Respublika hududiy patent fondi qoshida 1993-yilda patentga oid hujjatlar fondi tashkil etilgan. Patentga oid hujjatlar davlat fondining asosiy komplektlanish manbalari - xalqaro almashinuv, patentga oid hujjatlar, uslubiy adabiyotlarga egalik va davriy nashrlarga obunadir. Fond bosma variantda va optik disklarda aks etgan. Ayni kunda PHDF O'zbekiston Respublikasidagi patentga oid hujjatlarni to'liq jamlagan yagona fond hisoblanib, mamlakatimiz va xorijiy mamlakatlarning patentga oid hujjatlari saqlanuvchi markaziy tuzilma sifatida uning tarkibida dunyoning 25 ta mamlakati patent hujjatlari, 2 ta xalqaro va 2 ta hududiy tashkilotlar, ixtirochilikka va patent huquqi masalalariga doir adabiyotlar jamlangan. Fond tarkibida 79 millionga yaqin hujjatlar mavjud bo'lib, ularning asosiy qismi (64,5 million) optik disklarda aks etgan. Fondda ixtirolarga talabnomalar, mualliflik huquqlari, patentlar, foydali modellar uchun tavsiflar, sanoat namunalari tavsiflari, rasmiy byulletenlar, referativ jurnallar, uslubiy-me'yoriy adabiyotlar, ma'lumot beruvchi hujjatlar jamlangan. Fondda 1924-yildan boshlab 1993-yilga qadar O'zbekistonda ro'yxatga olingan ixtirolar tavsiflari, mualliflik guvohnomalari va Rossiya Federasiyasida berilgan patentlarga tavsiflar jamlanmasi bosma variantda saqlanmoqda. Fondda ixtirolarning to'liq tavsiflari bilan bir qatorda yetakchi xorij mamlakatlari va MDH davlatlarining rasmiy byulletenlari ham mavjud. Bu byulletenlarda quyidagi ma'lumotlar aks etgan: milliy talabnomalar va patentlarga, foydali modellar, sanoat namunalariga oid bibliografik ma'lumotlar va ixtiro referatini o'z ichiga olgan axborotlar, xizmat

ko’rsatish belgilari va ro’yxatga olingan foydali modellar, EHM uchun dasturlar va ma’lumotlar bazalari, seleksiya yutuqlari, shuningdek, patentlar holatidagi barcha huquqiy o’zgarishlar haqida ma’lumotlar jamlangan. Kutubxona fondida ilm-fandagi barcha yo’nalish va sohalar bo’yicha endiklopediyalar, shuningdek, o’zbek, rus, ingliz, fransuz, nemis, italyan, ispan, qadimiy grek, fors, afg’on, chex, yapon, polyak, serb-xorvat, koreys va turk tillaridagi lug’atlar mavjud.

Intellektual mulk mohofazasi borasidagi xorij qonunchiligi, intellektual mulk muhofazasining, patentga oid izlanishlarning huquqiy va iqtisodiy jihatlari, ilmiy-texnik siyosat, iqtisodiyot sohalarini patentga oid ma’lumotlar vositasida prognozlash kabi mavzular yoritilgan axborotlar va ilmiy adabiyotlar ham shular

jumlasidandir.



(19) O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI

DAVLAT PATENT IDORASI

(12) Ixtiro patentiga tavsif

(11) UZ IAP 03362

(13) C

(21) IAP 2005 0175

(22) 29.04.2005

(51) ХРК [8]
E 01 B 25/00

UZ IAP 03362

(46) 31.05.2007. Бюл., № 5

(56) 1. DE 19616937.
2. DE 19854937.
3. DE 19511035

(72) Нойхойзер Хельмут DE

(71) Нойхойзер Гмбх+Ко Дэгерзааль Фйрасзоиостзаме DE
Нойхойзер Гмбх+Ко Дэгерзааль Фйрасзоиостзаме DE

(73) Нойхойзер Гмбх+Ко Дэгерзааль Фйрасзоиостзаме DE
Нойхойзер Гмбх+Ко Дэгерзааль Фйрасзоиостзаме DE

(54) **Профилли юриш рельсларидан тайёрланган темир йўл изи**

**Рельсовая нитка из профильных ходовых рельсов**

(57) *Фойдаланиш соҳаси:* темир йўллар учун рельсли йўлларда. *Вазифаси:* маҳкамлаш воситалари ҳаракатларини муаммоларсиз бошқариш имкониятига эга бўлган ҳолда профилли юриш рельсларининг туташтирувчилари учун темир йўл изи конструкциясини такомиллаштириш. *Ихтиро моҳияти:* кўпинча рельс туташтиргичларининг (1a, 1b) пастки туташтириш зонасида (S) тирсаклар (6) ва ўйик (5) орасида жойлашган ҳамида U-симон куйи полкали (4) профилли юриш рельсларининг рельсли туташтирувчилари учун шарнирли рельсли бирикма (1a, 1b). Шарнирли бирикма (9) вкладиш (22) билан ва унга кирувчи бурилиш таянчининг планкаси (23) билан бажарилган. Бурилиш таянчининг вкладиши (22) куйи полканинг (4) ўйиғида (5) жойлашган. Бурилиш таянчининг вкладиши (22) ўйикда (5) ишлов берилмаган ҳолда маҳкамланган.
Формуланинг мустақил банди 1 та, боғланган банди 4 та, 16 та расм.

*Использование:* в рельсовых путях для железных дорог. *Задача:* усовершенствование конструкции рельсовой нитки для стыков профильных ходовых рельсов с возможностью управления без проблем движениями крепи. *Сущность изобретения:* шарнирное рельсовое соединение для рельсовых стыков (1a, 1b) профильных ходовых рельсов по меньшей мере с U-образной нижней полкой (4), с расположенной между коленами (6) выемкой (5) в нижней стыковой зоне (S) соседних рельсовых стыков (1a, 1b). Шарнирное соединение (9) реализовано с вкладышем (22) и входящей в него планкой (23) поворотной опоры. Вкладыш (22) поворотной опоры расположен в выемке (5) нижней полки (4). Вкладыш (22) поворотной опоры фиксирован без обработки в выемке (5).

1 н. и 4 з.п.п. ф-лы, 16 ил.

1.5-rasm. Bu ixtiroga patent olish uchun qilingan ixtiro tavsifi.

Bu hujjatdagi me’tamalumotlar butunjahon intellektual mulk tashkilotida foydalaniladigan standartlar asosida tuzilgan. Bu hujjat orqali qilingan ixtiro, foydali modellar, sanoat namunalari, tovar belgilari, seleksiya yutuqlari, ma’lumotlar bazalari, tovar kelib chiqqan joy nomlari, EHM uchun dasturlar, integral mikrosxemalar topologiyalari haqida qisqacha ma’lumot berish mumkin. Patentga oid hujjatlar davlat fondi (PHDF) negizida Agentlik mutaxassislari va

davlat patent ekspertlari, patent vakillari, shuningdek, patentga oid hujjatlar qiziqtiruvchi barcha foydalanuvchilarga xizmat ko'rsatish yo'lga qo'yilgan. Ma'lumot olish va kutubxona xizmatlaridan foydalanish uchun murojaat qiluvchi har bir fuqaro patentga oid hujjatlar davlat fondi foydalanuvchisi bo'la oladi. Foydalanuvchi fuqarolik pasporti yoki uning o'rnini bosuvchi hujjatga, talabalar esa talabalik guvohnomasiga ega bo'lishi lozim. Intellektual mulk obektlar hujjatlarini tuzib chiqish, talabnoma berish, ko'rib chiqishga oid bir qator qoidalar bor.

## 1-bob bo'yicha xulosa.

Mazkur bitiruv malakaviy ishi intellektual mulk obyektlari nima ekanligi, jahonda intellektual mulk bilan ishlaydigan tashkilotlar, ular uchun qilingan elektron kutubxonalar, O'zbekistonda intellektual mulk obyektlari uchun ishlatiladigan hujjatlar tahliliga bag'ishlangan bo'lib, bitiruv malakaviy ishi davomida quyidagi ishlar amalga oshirildi:

-Intellektual mulk obyektlari nima ekanligi;

-Jahonda intellektual mulk obyektlari uchun yaratilgan ma'lumotlar bazalari, elektron kataloglari, ularni yaratilish bosqichlari, yechimlari tahlili;

-wipo.int, clarevate catalitics bazalari;

-O'zbekistonda intellektual mulk obyektlari uchun ishlatiladigan hujjatlar to'plami ko'rib chiqildi;

Yuqoridagi bajarilgan tahlillar asosida intellektual mulk obyektlarining, kitoblarining elektron katalogini yaratish usullarining asosiy maqsadlari aniqlab olindi.

# II BOB. INTELLEKTUAL MULK OBYEKTLARINING ELEKTRON KATALOGINI YARATISH ALGORITMI VA KATOLOGLASHTIRISH

## 2.1. Intellektual muk agentliklari obyektlarining metama’lumotlari tahlili.

Intellektual mulk agentligi obyektlarini fondiga bibliografik tavsif berishda ST.9 ST.60 ST.80 standartlari ishlatiladi. ST.9 standarti ixtirolar, foydali modellar, seleksiya yutuqlari, EHM uchun dasturlar va ma’lumotlar bazalariga bibliografik tavsif berishda ishlatiladi. ST.9 standarti. Patentlar to’g’risida bibliografik ma’lumot haqida tavsiya. Patent hujjatlari va patent gazetalari foydalanuvchilari ko’pincha patent hujjatlari bo’yicha yoki ularga tegishli bibliografik ma’lumotlarni aniqlashda qiyinchiliklarga duch keladilar. Ushbu tavsiyaning maqsadi bu qiyinchiliklarni yengishdir. Tavsiyada patent hujjatlari birinchi sahifasida yoki patent gazetalarida keng qo’llanilgan taxminan 60 ta alohida bibliografik ma’lumotlar ro’yxati keltirilgan. Ular kod raqamlari, ya’ni "INID kodlari" yoki "INID raqamlari" deb nomlanadi. ("INID" - "Bibliografik ma’lumotlarning xalqaro kelishilgan raqamlari" uchun qisqartma.). ST.60 standarti tovar belgilariga bibliografik tavsif berishda ishlatiladi. ST.60 standarti. Ushbu tavsiyanoma odatda umumiy belgilarga va xususan (savdo belgisi) gazetalar va sertifikatlarning bibliografik mazmuniga oid ma’lumotlardan foydalanishni yaxshilashga qaratilgan. Ushbu tavsiyanoma, markalar (masalan, savdo belgisi) gazetalari yoki sertifikatlarida berilgan turli bibliografik ma’lumotlar, ishlatilayotgan til va sanoat mulki to’g’risidagi qonunlarni bilmasdan aniqlanishi mumkin bo’lgan kodlarni nazarda tutadi. Ushbu tavsiyanomada bibliografik ma’lumotlar, eng kamida, (savdo belgisi) gazetalarda nashr etilishi kerakligi ko’rsatilgan. ST.80 standarti sanoat namunalariga bibliografik tavsif berishda ishlatiladi. Ushbu tavsiya umuman sanoat namunalariga taaluqli axborotni va ayniqsa, rasmiy hujjatlardagi loyiha hujjatlari, dizayn sertifikatlari va yozuvlarning bibliografik tarkibiga kirishni yaxshilashga qaratilgan. Sanoat namunalari bilan bog’liq bo’lgan turli bibliografik ma’lumotlar, masalan, dizayn hujjatining birinchi sahifasida berilganligi kabi, loyiha sertifikatiga va rasmiy gazetaga kiritilgan ma’lumotlarga ega bo’lgan kodlarni nazarda tutadi. Ishlatiladigan til va sanoat mulki qonunlari,

konventsiyalar yoki shartnomalar qo’llaniladi. Ushbu tavsiyada, shuningdek, eng kamida, loyiha hujjatining birinchi sahifasida chop etilishi va rasmiy varaqdagi yozuvning bir qismi sifatida e’lon qilinishi kerak bo’lgan bibliografik ma’lumotlar ko’rsatilgan. Intellektual mulk obyektlari metama’lumotlarni MARC21 formati me’tamalumotlari bilan taqqoslab ARMAT++ dasturida yangi ishchi sahifa yaratish uchun umumiy metama’lumotlarni olamiz. Quyidagi jadvalimizda ixtirolar va foydali modellarga oid bibliografiya ma’lumotlarini identifikatsiyalash uchun xalqaro kodlar jadvali metama’lumotlarini MARC21formati maydonlari metama’lumotlari bilan taqqoslab chiqamiz.

2.1-jadval. ST.9 standarti va MARC21 formati metama’lumotlari

| Ixtirolar va foydali modellar me’tamalumotlar | MARC21 formati me’tamalumotlari |
|---|---|
| **11-patent raqami** | 13 a Patent hujjatining nomeri |
| **31-ustuvorlik talabnomasining raqami** | 13 g Talabnoma raqami |
| **32-ustuvorlik talabnomasining topshirilish sanasi** | 13 d Berilgan sana |
| **33-ustuvorlik mamalakatining kodi** | 13 b Mamlakat kodi |
| **46-muhofaza hujjatining chop etilish sanasi** | 260 Nashr etilgan yil, sana |
| **51-Xalqaro patent klassifikatsiyasifi-katsiyasining (XPK) indekslari** | 84 Klassifikator indeksi |
| **54-Ixtiro nomi** | 245 a Asosiy sarlavha |
| **57-ixtiro yoki foydali modelning referati, formulasi** | 520 Annotatsiya |
| **71-talabnoma beruvchining nomi, mamlakat kodi** | 110 a Tashkilot nomi |
| **72-muallifning nomi, mamlakat kodi** | 700 Boshqa mualliflar |
| **73-patent egasining nomi** | 100 a Familiya ism sharifi |

Bu jadvalimizda seleksiya yutuqlariga oid bibliografiya ma'lumotlarini aylantirish uchun kodlar jadvali me'tamalumotlarini MARC21 formati maydoni metama'lumotlari bilan taqqoslangan.

2.2-jadval. ST.9 standarti va MARC21 formati metama'lumotlari.

| Seleksiya yutuqlariga oid me'tamalumotlar | MARC21 formati me'tamalumotlari |
|---|---|
| **11-patent raqami** | 13 a Patent hujjatining nomeri |
| **21-talabnomani ro'yhatdan o'tkazish raqami** | 13 g Talabnoma raqami |
| **22-talabnomani topshirish sanasi** | 13 d Berilgan sana |
| **46-ro'yhatdan o'tkazilgan seleksiya yutuqlari chop etilgan sana** | 260 Nashr etilgan yil |
| **54-ekin, navning nomi, seleksiya yutug'i nomi** | 245 a Asosiy sarlavha |
| **57-referat** | 520 Annotatsiya |
| **71-talabnoma beruvchining nomi, mamlakat kodi** | 110 Tashkilot nomi |
| **72-muallifning nomi, mamlakat kodi** | 700 Boshqa mualliflar |
| **73-patent egasining nomi** | 100 Familiya ism sharifi |

Bu jadvalimizda sanoat namunalariga oid bibliografiya ma'lumotlarini identifikatsiyalashtirish uchun xalqaro kodlar jadvali metama'lumotlarini MARC21 formati maydonlari metama'lumotlari bilan taqqoslangan.

2.3-jadval. ST.80 standarti va MARC21 formati metama'lumotlari

| Sanoat namunalariga oid me'tamalumotlar | MARC21 formati me'tamalumotlari |
|---|---|
| **11-patent raqami** | 13 a Patent hujjatining nomeri |
| **31-ustuvorlik talabnomasining raqami** | 13 g Talabnoma raqami |

| | |
|---|---|
| **32-ustuvorlik talabnomasining topshirilgan sanasi** | 13 d Berilgan sana |
| **33-ustuvorlik talabnomasi topshirilgan mamlakat kodi** | 13 b Mamlakat kodi |
| **45-ro'yhatdan o'tkazilgan sanoat namunasining chop etiish sanasi** | 260 c Nashr etilgan yil |
| **51-sanoat namunalarining xalqaro tasnifi(SNXT) indekslari** | 84 Klassifikator indeksi |
| **54-sanoat namunasining nomi** | 245 a Asosiy sarlavha |
| **71-talabnoma beruvchining nomi, mamlakat kodi** | 110 Tashkilot nomi |
| **72-muallifning nomi, mamlakat kodi** | 700 Boshqa mualliflar |
| **73-patent egasining nomi** | 100 Familiya ism sharifi |

Bu jadvalimizda tovar belgilariga oid bibliografiya ma'lumotlarini identifikatsiyalashtirish uchun xalqaro kodlar jadvali metama'lumotlarini MARC21 formati maydonlari metama'lumotlari bilan taqqoslangan.

2.4-jadval. ST.60 standarti va MARC21 formati metama'lumotlari.

| **Tovar belgilariga oid me'tamalumotlar** | **MARC21 formati me'tamalumotlari** |
|---|---|
| **111-ro'yhatdan o'tkazish raqami** | 13 a Patent hujjatining nomeri |
| **210-talabnoma raqami** | 13 g Talabnoma raqami |
| **320-talabnoma berilgan sana** | 13 d Berilgan sana |
| **522-Xalqaro klassifikatsiya indexslar** | 84 Klassifikator indeksi |
| **540-tovar belgisini tasvirlash** | 90 x Mualliflik belgisi |
| **732-tovar belgisi egasi nomi** | 700 Boshqa mualliflar |

Bu jadvalimizda EHM uchun dasturlar va ma'lumotlar bazalariga oid bibliografiya ma'lumotlarini identifikatsiyalashtirish uchun xalqaro kodlar jadvali

metama'lumotlarini MARC21 formati maydomlari metama'lumotlari bilan taqqoslangan.

2.5-jadval. ST.9 standarti va MARC21 formati metama'lumotlari.

| EHM uchun dasturlar va ma'lumotlar bazalariga oid me'tamalumotlar | MARC21 formati me'tamalumotlari |
|---|---|
| **11-ro'yhatdan o'tkazish raqami** | 13 a Patent hujjatining nomeri |
| **21-talabnoma raqami** | 13 g Talabnoma raqami |
| **22-talabnomani topshirish sanasi** | 13 d Berilgan sana |
| **54-EHM uchun dastur yoki ma'lumotlar bazasining nomi** | 245 a Asosiy sarlavha |
| **57-EHM uchun dastur yoki ma'lumotlar bazasining referati** | 520 Annotatsiya |
| **72-EHM uchun dastur yoki ma'lumotlar bazasi mualliflari ismi** | 700 Boshqa mualliflar |
| **73-patent egasining nomi** | 100 Familiya ism sharifi |

Hozir MARC21 formati va intellektual mulk obyektlari uchun ishlatiladigan standartlarni taqqoslab oldik va kerakli bo'lab maydonlarni qo'shib oldik.

## 2.2. Intellektual mulk obyektlarining elektron katalogini yaratishga mo'ljallangan ishchi sahifani yaratish algoritmi.

Bugungi kunda yurtimizdagi barcha kutubxonalar kitoblari raqamli ko'rinishga o'tkazilmoqda ya'ni elektron katalog, elektron kutubxona ko'rinishiga o'tkazilmoqda. Buning uchun kutubxonalarda turli xil dasturlardan foydalanilmoqda. Men bu bitiruv malakaviy ishimda intellektual mulk obyektlarini, kitoblarni elektron katalogini yaratishda ARMAT++ dasturidan foydalandim. ARMAT++ dasturida intellektaul mulk obyektlarini, kitoblarini kataloglashtirishning algoritmini ko'rib chiqamiz.




2.1-rasm. Intellektual mulk obyektlarini elektron katalogini yaratishga mo’ljallangan ishchi sahifani yaratish algoritmi.

Bu algoritm bo’yicha blok-sxemalarga tavsif beradigan bo’lsak ular quyidagicha jarayonlarni amalga oshiradi.

2.6-jadval. Algoritmda keltirilgan blok-sxemalar tavsifi.

| № | Blok-sxema | Tavsifi |
|---|---|---|
| **1** | Intellektual mulk obyektlarini metama’lumotlar tahlili | Bu yerda intellektual mulk obyektlariga oid standartlarni ya’ni ST.9 ST.60 ST.80 standartlar tahlili qilindi. |
| **2** | a[i] intellektual mulk metama’lumotlari | ST.9 ST.60 ST.80 standartdagi metama’lumotlar |
| **3** | b[i] MARC21 | ARMAT++ dagi MARC21 formati |

| | | |
|---|---|---|
| | metama'lumotlari | metama'lumotlari |
| **4** | a[i]==b[i] | Bu yerda ST.9 ST.60 ST.80 standartdagi metama'lumotlar va MARC21 metama'lumotlari tengligi taqqoslanganligi |
| **5** | chek b[j] | Bu yerda agar metama'lumotlar teng bo'lsa ya'ni ha bo'lsa, b[j] maydon kiritiladi |
| **6** | input a[i] | Bu yerda agar metama'lumotlar teng bo'lmasa ya'ni yo'q bo'lsa, yangi MARC21 me'tamalumot kirit |
| **7** | Intellektual mulk obyektlari metama'lumotlari ishchi sahifasini yaratish | Ixtirolar<br>Foydali modellar<br>Sanoat namunalari<br>Tovar belgilari<br>Tovar kelib chiqqan joy nomlari<br>EHM uchun dasturlari<br>Ma'lumotlar bazalari<br>Integral mikrosxemalar topologiyalari<br>Seleksiya yutuqlariga oid yangi ishchi sahifalar yaratiladi. |

Tuzib chiqqan algoritm bo'yicha tizimni ishlashini ko'rib chiqadigan bo'lsak, ARMAT++ dasturida yangi ishchi sahifa yaratish jarayonini ko'rib chiqamiz. Avvalo ARMAT++ tizimiga ishga tushiramiz. OpenServer dasturini ishga tushirgan holda ARMAT++ dasturi ishga tushiriladi. Tizimda 5 ta avtomatlashtirilgan ish o'rni mavjud bo'lib, bular quyidagilardan iborat.

-Foydalanuvchi

-Kataloglashtiruvchi

-Administrator

-Kutubxonachi

-Bibliograf

Intellektaul mulk obyektlari uchun yangi ishchi sahifa yaratish uchun tizimga administrator bo’lib kiramiz va ishchi sahifalarni yaratamiz. Usernamega **admin** passwordga **1** yozamiz va identifikatsiya autintifikatsiya jarayonlaridan o’tamiz.




2.2-rasm. ARMAT++da identifikatsiya autintifikatsiya jarayonlari.

Endi esa yangi ishchi sahifa yaratish uchun **Ishchi sahifalar** degan bo’limiga kiramiz va yangi ishchi sahifa yaratamiz.




2.3-rasm. Ishchi sahifalarga kirish.




2.4-rasm. Yangi ishchi sahifa qo’shish.




2.5-rasm.Yangi ishchi nomlarini yozish.

Kerakli maydonlarni to’ldirganimizdan so’ng **Qo’shish** tugmasini bosamiz. Yangi ishchi sahifa yaratilganidan so’ng unga kerakli maydonlarni qo’shib chiqamiz. Bu maydonlar yuqoridagi jadvallarda tahlil qilingan metama’lumotlar asosida tanlab olinadi va qo’shiladi.

| Nomi (Uz) | Ma`lumot (Uz) | Holati | Ma`lumotlar bazasi | Tashkilot | 15 |
|---|---|---|---|---|---|
| Энциклопедияларни каталоглаштириш | | Aktiv | | | |
| Umumiy | Umumiy | Aktiv | | | |
| Даврий нашрларнинг умумий қисми | | Aktiv | tatu | TATU | |
| Даврий нашрларнинг алоҳида сони | | Aktiv | tatu | TATU | |
| Даврий нашрларнинг таркибий қисми | | Aktiv | | | |
| EHM uchun dasturlar va ma'lumotlar bazalari | | Aktiv | | | |
| Ixtirolar va foydali modellar | | Aktiv | IMA | IMA | |
| Sanoat namunalari | | Aktiv | IMA | IMA | |
| Seleksiya yutuqlari | | Aktiv | IMA | IMA | |
| Tovar belgilari | | Aktiv | IMA | IMA | |

2.6-rasm. Maydonlar ro'yhatiga o'tish.

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| ☐ | Narxi | 20 | c | | Kitobning muqovasida ko`rsatilgan narx kiritiladi. Masalan: 12000 so`m |
| ☐ | Kataloglashtirish manbayi | 40 | | | |
| ☐ | Til kodi | 40 | b | | |
| ☑ | Nash tili | 41 | a | | |
| ☑ | Matn yozilgan til kodi | 41 | b | | Matn yozilgan til kodi kiritiladi. Masalan: uzb |
| ☑ | Nash tili | 41 | | | |
| ☐ | Bilimlar soxasi | 60 | a | | Adabiyot tegishli bo`lgan bilimlar soxsasi statik ma'lumotnomadan foydalanib tanlab qo`yiladi. |
| ☐ | Fanlar | 62 | a | | |
| ☐ | Klassifikator indeksi | 84 | | | |
| ☑ | KBK indeksi | 84 | a | | |
| ☐ | Shifrlar | 90 | | | |
| ☐ | Joylashuv indeksi | 90 | a | | Resursning javondagi joylashgan indeksi ko`rsatiladi. Agarda fond KBK yoki UO`K ga ko`ra joylashtirilgan bo`lsa, u holda KBK yoki UO`K indeksi ko`rsatiladi. Masalan: 1-5-9 (birinchi qator, beshinchi javon, to`qqizinchi yacheyka) |
| ☐ | Mualliflik belgisi | 90 | x | | Muallifning mualliflik belgisi kiritiladi. Masalan: K 25 |
| ☐ | Familiya ism sharif | 100 | a | | Muallifning familiya ismi sharifi quyidagi tartibda kiritiladi: Karimov U. F. |
| ☑ | Shaxs roli | 100 | e | | Kiritilgan muallifning, resurs yaratilishidagi roli statik ma'lumotnomadan foydalanib kiritiladi. |
| ☑ | To`liq ism | 100 | q | | Agarda muallifning to`liq ismi aniq bo`lsa, 100 Q maydonga kiritiladi. Aks holda maydon bo`sh qoldiriladi. |
| ☐ | Asosiy bibliografik yozuv sarlavhasi | 110 | | | |
| ☑ | Tashkilot nomi | 110 | a | | Kitob muqavasidagi birinchi turgan mualif tashkilot nami kiritiladi. |

2.7-rasm. Maydonlar qo'shish.

Kerakli maydonlarni belgilaganimizdan so'ng **Saqlash** tugmasini bosamiz va kataloglashtiruvchi avtomatlashtirilgan ishchi o'rniga kirib yangi ishchi sahifa maydonlarini tekshirib ko'ramiz.




2.8-rasm. Yaratilgan yangi ishchi sahifa orqali kataloglashtirish.




2.9-rasm. Kataloglashtirish.

## 2.3. Intellektual mulk obyektlariga oid kitoblarni katologlashtirish.

Intellektual mulk obyektlariga oid hujjatlarni, kitoblarni kataloglashtirish jarayoni ko'rib chiqamiz. Intellektual mulk obyektlarini kataloglashtirish uchun o'zimiz yaratib olgan ishchi sahifalar orqali kiritib chiqamiz. Kitoblarni kataloglashtirish uchun esa kitoblarni mualliflariga qarab yaratib olamiz. Bu jarayon bilan biz O'zbekiston Respublikasi Intellektual mulk agentligi axborot-resurs markazi kitoblarini, hujjatlarini ARMAT++ dasturi orqali avtomatlashtiramiz.

Hozir biz В.И. Кириченко ning "Лицензионная торговля. Ч 2. Реализация и приобретение научно технических достижений на внешнем рынке" kitobini elektron katologini yaratib ko'ramiz.




2.10-rasm. 1-3 mualliflik hujjat tavsifini yaratish.

Buning uchun biz kataloglashtiruvchining avtomatlashtirilgan ishchi o'rniga kiramiz va 1-3 muallifli hujjat tavsifini yaratish ishchi sahifasini yaratishni tanlaymiz. Kerakli maydonlarni birin ketin to'ldirib chiqamiz.




2.11-rasm. Kitobga tavsif berish.

Maydonlarni to'ldirib bo'lganimizdan so'ng quyidagicha elektron katolog yaratiladi.

| | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| 3 | | 2172 | К43 **Кириченко, В.И.** Лицензионная торговля. Ч 2. Реализация и приобретение научно технических достижений на внешнем рынке. [matn] : / В.И. Кириченко; А.А. Земсков. - 180 с- . **КВК 67.404.314(2Рос)+67.404.314(3)** **Annotatsiya:** Рассмотрены вопросы изучения рынка научно-технических достижении методология их отбора для коммерческой реализации на внешнем рынке, включая оценку привлекательности конкретных НТД для рынка технологий а также некоторые вопросы деятельности. **Boshqa murojaat nuqtalari:** Земсков, А.А. / / | 0 | 0 | | 1 |

2.12-rasm. Tavsifi.

## 2-bob bo'yicha xulosa.

Bu bobda intellektual mulk obyektlarini elektron katologini yaratish algoritmi va kataloglashtirsh ko'rib o'tildi. Bunda:

-birinchi rejasida intellektual mulk obyektalarini metama'lumotlarini tahlili ko'rib chiqildi va ARMAT++dagi MARC21 formati maydonlari bilan taqqoslab chiqildi.

-ikkinchi rejada esa intellektual mulk obyektlari uchun yangi ishchi sahifa yaratildi va uni yaratish bo'yicha uning algoritmi ko'rib chiqildi. Algoritm bo'yicha metama'lumotlar aniqlandi va yana kerak bo'lgan qo'shimcha MARC21 maydonlar qo'shildi.

-uchinchi rejada esa elektron kataloglashtirish jarayoni keltirib o'tildi. Bu jarayonda intellektual mulk obyektlari yangi ishchi sahifaga qanday qilib kiritilishi, intellektual mulk obyektlariga oid kitoblarni kataloglashtirish jarayoni ko'rib o'tildi.

# III BOB. INTELLEKTUAL MULK OBYEKTLARINI KATOLOGLASHTIRISHNING FUNKSIONAL TUZILMASI, TASHKILIY TUZILMASI VA FOYDALANUVCHI YO'RIQNOMASI

## 3.1. Intellektual mulk obyektlarining elektron katologini yaratishga mo'ljallangan tizimning funksional tuzilmasi.

Intellektual mulk obyektlarini elektron katalogini yaratganimizda tizimning funksional tuzilmada barcha funksional bo'limlar ARMAT++ malumotlar bazasiga bog'langan. Bunda 1-bo'lib ma'lumotlar kiritiladi va bu ma'lumotlar elektron katolog, to'liq matn ko'rinishida bo'lishi mumkin. So'ngra registratsiya jarayonida foydalanuvchining ma'lumotlari kiritiladi va boshqaruvchi tomonidan tekshiriladi. Qidirish funksiyasi yordamida bazaga so'rov yuboriladi. Qidirish jarayonida metama'lumotlarni qidirish amalga oshiriladi va olingan elektron katalog chiqariladi. Tizimdagi elektron katalog statistikasi ham olinadi. Bu jarayonni quyidagicha chizma orqali tasvirlashimiz mumkin bo'ladi:




3.1-rasm. Intellektual mulk obyektlarining elektron katologini yaratishga mo'ljallangan tizimning funksional tuzilmasi.

Ko’rib turganimizdek funksional tuzilmada bir nechta jarayonlar keltirib o’tilgan. Bu yerda kiruvchi hujjatlar, metama’lumotlarni aniqlash, ishchi sahifani yaratish, administrator vazifasi, kataloglashtirish jarayoni, kataloglashtiruvchi, foyfalanuvchi so’rovlari, so’rov natijalari, statistika jarayonlarini ko’rib o’tishimiz mumkin. Mana shu jarayonlarni yoritib o’tamiz:

**Kiruvchi hujjatlar** - Intellektual mulk agentligi obyektlari va ularga oid kitoblari bo’ladi.

**Metama’lumotlarni aniqlash –** kiruvchi hujjatlarni turini aniqlash.

**Ishchi sahifa yaratish –** intellektual mulk obyektlari, kitoblari uchun alohida ishchi safa yaratish.

**Admin –** tizimni boshqaruvchi shaxs hisonlanadi. Bu funksional tuzilmada administrator yangi ishchi sahifa va ma’lumotlar bazasini yaratadi va boshqaruv vazifalarini bajaradi.

**Kataloglashtirish** - resurslarni xronologik, sistemali, alfavit, predmetli shaklda ajratish va tartibga solish.

**Kataloglashtiruvchi** – tizimda kataloglashtirish jarayoni bilan shug`ullauvchi shaxs.

**Foydalanuvchi** – bu ma’lumotlar bazasiga biron bir so’rov jo’natadigan shaxs hisoblanadi.

**So’rov** – tizimdan foydalanmoqchi bo’lgan foydalanuvchi tomonidan yuboriladigan ehtiyoj.

**So’rov natijasi** – foydalanuvchi tomonidan berilgan so’rovga nisbatan olingan javob.

**Statistika -**so`rovlar natijasi qay darajada qoniqarli amalga oshirilayotganini hisoblovchi qism.

**IP Center** – kataloglashtirish jarayonini olib boradigan bo’lim.

Funksional tuzilmadagi jarayonlarning masalalar sxemasini ishlab chiqadigan bo’lsak, bu quyidagicha bo’ladi:

Masalalar sxemasi.




3.2-rasm. Funksional tuzilma ishlashining masalalar sxemasi.

Masalalar sxemasida funksional tuzilma uchta tizimostilarga bo'lingan. Ya'ni kataloglashtirish, qidirish va ma'lumotlarni chiqarish tizimostilari. Bunda kataloglashtirish jarayonida kirib kelayotgan hujjatlarni metama'lumotlari tekshiriladi va aniqlanadi. So'ngra yangi ishchi sahifa yaratilib intellectual mulk obyektlarini elektron katalogi yaratiladi. Qidirish tizimostida foydalanuvchi tomonidan berilgan so'rovlar amalga oshiriladi, ya'ni elektron katalogdan qidiriladi. Ma'lumotlarni chiqarish jarayonida esa so'rov natijasida chiqqan natijani va statistika olinadi.

## 3.2. Intellektual mulk obyektlarini katologlashtirishning tashkiliy texnologik tuzilmasi.

Tashkiliy tuzilma deganda, boshqaruv bo'g'inlari va bosqichlarining miqdori hamda tarkibi tushuniladi. Tashkiliy tuzilmaning oddiy va tushunarli bo'lishi uning ish qobiliyati yuqori bo'lishini kafolatlaydi, ya'ni boshqaruv tashkiliy tuzilmasida bosqich va bo'g'inlar qancha kam bo'lsa, boshqaruv shunchalik samarali bo'ladi. Boshqaruv bo'g'inlari - bu bitta yoki bir qancha vazifalarni bajaruvchi mustaqil tarkibiy unsurlar. Tuzilma elementlari-ularning bo'linmalari va boshqaruv apparatida ishlovchilardir. Tashkiliy tuzilmalar juda turli-tuman, lekin ular umumiy izchil bog'liqlikka ega va qonuniyatlarga bo'ysunadi. Boshqarishning tashkiliy tuzilmasining asosiy turi chiziqli va funksional turlaridir. Ular birikishi asosida turli xil chiziqli-funksional tuzilmalar tarkib topadi.

Chiziqli tuzilma uning quyi boshqaruv bo'g'inlari yuqori bosqichdagi rahbarga bevosita bo'ysunishi bilan tavsiflanadi. Chiziqli tuzilmada har bir xodim bitta rahbarga bo'ysunadi va yuqori tizim bilan faqat u orqali bog'langan bo'ladi. Chiziqli tuzilmaning ijobiy tomonlari uning oddiy, ishonchli, kamxarjligidir. Har bir rahbar butun mehnat jamoasi faoliyati natijalari bo'yicha javobgar. Bu strategik va joriy qarorlarni qabul qilish huquqi markazlashishiga olib keladi. Chiziqli tuzilmalarni hal etiluvchi masalalar doirasi keng bo'lmagan, bu masalalar yechilishi oson bo'lgan hollarda qo'llash maqsadga muvofiqdir.

Chiziqli tuzilmaning asosiy kamchiligi bo'g'inlar koordinatsiyasining puxta bo'lmasligidan iborat. Rahbar universal mutaxassis bo'lishi va unga bo'ysunuvchi barcha bo'g'inlar faoliyatining hamma tomonini qamrab olishi lozim.

Funksional tuzilma — boshqaruv vazifalarining funksional bo'g'inlar va rahbarlar o'rtasida taqsimlanishiga asoslanadi. U boshqaruv murakkablashuvi va ixtisoslashuv rivojlanishi bilan bog'liq holda vujudga kelgan.

Funksional tuzilmada boshqaruvchi ko'rsatmalar nisbatan malakali bo'ladi, lekin yakka boshchilik tamoyiliga rioya qilinmaydi. Funksional bo'g'inlar soni ortishi bilan har bir bo'g'inning mustaqil ravishda hal etuvchi masalalar doirasi torayib boradi. Muammoning mohiyati har bir bo'g'in o'z masalasini birinchi navbatda hal qilishdan manfaatdor bo'lishida emas, balki bitta ham bo'g'in bu masalani yetarli darajada asoslangan holda va to'g'ri hal qila olmasligi, yechimlar maydalashib, to'liq bo'lmay qolishidadir. Bu boshqaruvni murakkablashtirib, uning samara-dorligini kamaytiradi. Chiziqli tuzilmani tashkil etish va funksional tuzilmaning kamchiliklari qo'shma, biriktirilgan tuzilmalar — chiziqli-shtabli, chiziqli-funksional va boshqa tuzilmalar vujudga kelishiga sabab bo'ldi. Chiziqli-shtabli tuzilmada chiziqli tuzilma asos qilib olinadi, lekin boshqaruvning quyi bo'g'inga ega har bir bo'g'inida ayrim muhim muammolar bo'yicha shtablar tuziladi. Shtablar malakali qarorlar tayyorlaydi, lekin chiziqli tuzilma rahbari tasdiqlab, quyi darajaga yuboradi. U shtab tavsiyalarini koordinatsiya qiladi, muvofiqlashtiradi va natijada boshqaruv sifati yaxshilanadi. Lekin, vazifalar miqdori ko'p bo'lsa, chiziqli tuzilma rahbarining vazifalari ham ortadi. Shu sababli, amaliyotda boshqa qo'shma tuzilmalar vujudga keldi. Ular orasida eng keng tarqalgani chiziqli-funksional tuzilmadir. Chiziqli-funksional tuzilmada funksional zvenolar quyi turgan bo'linmalarga o'zlari buyruq beradilar, lekin ularga taalluqli bo'lgan aniq savollar amalga oshiriladi.

O'zbekiston Respublikasi Intellektual mulk agentligi tashkiliy tuzilmasi, Axborot-Resurs markazini tashkiliy tuzilmasi ham bir necha bo'limlardan iborat. Bunda tashkilotda bir necha bo'limlar bor. ARMda bir necha ishchi o'rinlar mavjud va bularning o'z bolimlari bor. Ya'ni tashkilot direktor, ARM direktori,

kutubxonachilar bo’limi, kataloglashtiruvchi bo’limi, administrator bo’limi, fondlarni saqlash bo’limi, o’quv zali bo’limi, kompyuter zali bo’limi va boshqa bo’limlar.

O’zbekiston Respublikasi Intellektual mulk agentigi ijro apparati tuzilmasi




3.3-rasm. Intellektual mulk agentligi tashkiliy tuzilmasi.

Bosh direktor - O’zbekiston Respublikasi Intellektual mulk agentligi sohasiga umumiy rahbarlik qiladi hamda Agentlikka yuklangan vazifalar va funksiyalarning bajarilishi uchun shaxsan javob beradi;

Bosh direktor o’rinbosari - intellektual mulk sohasida zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etish, tadbirkorlik sub’ektlariga va aholiga "yagona darcha” tamoyili bo’yicha davlat interaktiv xizmatlari ko’rsatish ishlarini tashkil etadi;

Bosh direktor o’rinbosari - ixtirolar, foydali modellar, sanoat namunalarini davlat ro’yxatidan o’tkazishni, seleksiya yutuqlari, tovar belgilari, xizmat ko’rsatish belgilari, tovarlarning kelib chiqish joylari nomlarini ro’yxatdan o’tkazishni, EHM uchun dasturlarni, ma’lumotlar bazalarini rasmiy ro’yxatdan o’tkazishni hamda integral mikrosxemalar topologiyalarini ro’yxatdan o’tkazishni tashkil etadi.

IMA ARMning tashkiliy tuzilmasi.



| N | Lavozimi | Vazifasi |
|---|---|---|
| 1 | Tashkilot direktori | Agentlikka yuklangan vazifalar va funksiyalarning bajarilishi uchun shaxsan javob beradi |
| 2 | Direktor o'rinbosari | intellektual mulk sohasida zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etish, tadbirkorlik sub'ektlariga va aholiga "yagona darcha" tamoyili bo'yicha davlat interaktiv xizmatlari ko'rsatish ishlarini tashkil etadi |
| 3 | ARM direktori | ARMdagi vazifalarni bajarilishini nazorat qiluvchi ARM me`yoriy huquqib bazasi bilan ish olib boruvchi hodim |
| 4 | Fondni saqlash bo'limi | intellectual mulk obyektlari, kitobblarini saqlash bo'limi |
| 5 | Intellektual mulk obyektlari statistikasi bo'limi | ARMga kelib tushayotgan yangi ixtirolar, kashfiyotlarni hisobga olib borish ishlarini amalga oshiradi |
| 6 | Foydalanuvchilarga xizmat ko'rsatish bo'limi | ARMga kelgan foydalanuvchilar fondagi kitoblardan foydalanishi uchun xizmat ko'rsatish |
| 7 | Kataloglashtirish bo'limi | Ma'lumotlar bazasini yangi kitoblar bilan to'ldirib borish, foydalanuvchilar talab va buyurtmalari bilan ishlash va bu haqda ARMga hisobot berib boorish |
| 8 | IMA obektlariga oid CD/DVD saqlash bolimi | bu yerda 1000 dan ortiq disklar saqlanadi |
| 9 | Foydalanuvchi | Ma'lumotlar bazasidan foydalanish |

3.4-rasm. Intellektual mulk agentligi ARMining tashkiliy tuzilmasi.

Bu tashkiliy tuzilmadagi har bir blok ichidagi bo'limlarning o'z vazifalari bor. Bu vazifalari quyidagi jadvalda keltirib o'tilgan.

3.1-jadval. Tashkiliy tuzilmadagi bo'limlarning vazifasi jadvali.

## 3.3. Foydalanuvchi yo'riqnomasi.

Bu bitiruv malakaviy ishi Intellektual mulk agentligi axborot-resurs markaziga taqdim etilganidan so'ng, ARM fondi to'liq avtomatlashtiriladi. Foydalanuvchilar bu bazadan o'zlariga kerakli bo'lgan kitoblarni, intellektual mulk obektlarini qidirib topishi mimkin. Qidiruv jarayonida kitoblar muallifi ismlari, nashr etilgan yillari, kashfiyotlar nomlari bilan qidirishlari mumkin bo'ladi. Endi

ARMAT++ dan qanday qilib foydalanishni ko’rib o’tamiz. Buning uchun biz birinchi ARMAT++ dasturini qanday qilib o’rnatishni ko’rib o’tamiz.

ARMAT++ dasturini o’rnatish uchun kompyuterga OpenServer dasturi o’rnatilgan bo’lishi kerak. Agar masofadan foydalanuvchilar kirmoqchi bo’lsa ularda faqatgina internet bo’lsa bo’ldi. Brauzer orqali kirishlari mumkin bo’ladi. Masalan armat.tuit.uz. Tizimdan foydalanish uchun foydalanuvchini ro’yhatdan o’tkazamiz.




3.5-rasm. ARMAT++ yangi foydalanuvchini ro’yhatdan o’tkazish.

Registratsiya buyrug’ini tanlanadi va ro’yhatdan o’tiladi.

Bu joyda foydalanuvchi tomonidan asosiy ma’lumotlar to’ldiriladi. Login, parol, elektron pochta.




3.6-rasm. Foydalanuvchining asosiy ma’lumotlari.

Bu joyida esa tashkilot nomlari to’ldiriladi.




3.7-rasm. Tashkilot ma’lumotlari.

Bu bo’limda esa foydalanuvchi shaxsiy ma’lumotlarini kiritadi.




3.8-rasm. Foydalanuvchining shaxsiy ma'lumotlari.

Va oxirida Qo'shish tugmasini bosgan holda foydalanuvchi qo'shiladi.




3.9-rasm. Ro'yhatdan o'tkazildi.

Shundan so'ng kataloglashtiruvchi tizimdan ro'yhatdan o'tgan foydalanuvchining ma'lumotlari to'g'riligini tekshiradi va aktiv holatga o'tkazadi. Shundan so'ng foydalanuvchi o'z login parolini terib tizmdan bemalol foydalana olishi mumkin.

Foydalanuvchi ishchi sahifasiga kiramiz.




3.10-rasm. Foydalanuvchi ishchi o'rni.

Foydalanuvchining ishchi sahifasi quyidagi bandlardan tashkil topgan:

- Bosh sahifa
- Ma’lumotlarim
- Muassasa ma’lumotlari
- O’qilgan kitoblar
- Qarzlarim
- Maxsus buyurtma
- Hisobot
- Izlash
- Kengaytirilgan izlash

Oddiy izlash yo’li bilan biror bir kitobga oid so’zni kiritib qidirib ko’ramiz.




3.11-rasm. Kitob qidirish.

Bu yerda qidiruv natijalaridan so’ng chiqqan elektron kataloglar. Foydalanuvchiga kerak bo’lgan kitobni belgilaydi va unga buyurtma beradi.



| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| 6 | ☐ | 1193 | | КВК 65.5+92я2<br>**Annotatsiya:** Составленный одним из наиболее уважаемых экспертов в области бизнеса, консультантом Оксфордского словаря английского языка, Словрь соединяет в себе точночть, авторитет и информационную широту, которой профессионалы, которой профессионалы и начинающие всегда ожидают от словарей Розенберга<br>**Boshqa murojaat nuqtalari:** |
| 7 | ☐ | 1830 | Б64 | **Гребенюк, Т.В.**<br>Биржевая торговля на узбекской републиканской товарно-сырьевой бирже [ ] : / Т.В. Гребенюк; Т.Р. Тохтабоев. - 352 с.<br>КВК 65.421<br>**Annotatsiya:** В сборнике впервые последовательно представлены комментарии основы моментов биржевой торговли на УзРТСБ и состав нормативно-правовой базы, регулирующей биржевую торговлю на УзРТСБ, по состоянию на 1.12.2005 г.<br>**Boshqa murojaat nuqtalari:**<br>Тохтабоев, Т.Р. / / |
| 8 | ☐ | 2172 | К43 | **Кириченко, В.И.**<br>Лицензионная торговля. Ч 2. Реализация и приобретение научно технических достижений на внешнем рынке. [matn] : / В.И. Кириченко; А.А. Земсков. - 180 с- .<br>КВК 67.404.314(2Рос)+67.404.314(3)<br>**Annotatsiya:** Рассмотрены вопросы изучения рынка научно-технических достижении методология их отбора для коммерческой реализации на внешнем рынке, включая оценку привлекательности конкретных НТД для рынка технологий а также некоторые вопросы деятельности.<br>**Boshqa murojaat nuqtalari:**<br>Земсков, А.А. / / |

3.12-rasm. Qidiruv natijalari.

## 3-bob bo'yicha xulosa.

Hozirgi kungacha ARMAT++ dasturida Intellektual mulk obektlarini elektron kataloglashtirish yo'llari ko'rib o'tilmagan. Bu bobimizda intellektual mulk obyektlarining elektron katologini yaratishga mo'ljallangan tizimning funksional tuzilmasi, intellektual mulk obyektlarini katologlashtirishning tashkiliy texnologik tuzilmasi, foydalanivchi yo'riqnomasi ko'rib o'tildi. Unga ko'ra bu tizim O'zbekiston Respublikasi intellektual mulk agentligi ARMga mo'ljallangan bo'lib, patent oluvchilar ya'ni kutubxonaga kelgan foydalanuvchilar oldin qilingan ishlar bilan o'z ishlarini solishtirishlarini qulaylashtiradi. Bu tizimning funksional tuzilmasida intellektual mulk obyektlarini elektron katalogini yaratganimizda tizimning funksional tuzilmada barcha funksional bo'limlar ARMAT++ ma'lumotlar bazasiga bog'langan. Tashkiliy tuzilmasida tashkilotning tashkiliy tuzilmasi va axborot resurs markazining tashkiliy tuzilmalari keltirib o'tilgan.

# IV BOB. AXBOROT KUTUBXONA MUASSASALARIDA TEXNIKA XAVFSIZLIGI VA MEHNAT MUHOFAZASI

## 4.1. Kompyuter xonalarida ish joyini tashkil etilishida qo'yilgan asosiy talablar.

Kompyuter xonalarida ish joyi to'g'ri tashkil etilishi ish unumdorligini oshirish, charchashni oldini olish, ish joyidagi jihozlarni va uskunalarni to'g'ri joylashtirishning omillari, ranglarni to'g'ri tanlay bilishdir. Uskunalar shunday joylashishi kerakki ishchilar ortiqcha harakatsiz, o'zini zo'riqtirmasdan osongina foydalanish.

Ish joyida mehnat sharoitini yaxshilash ishlariga bir qancha omillarni hisobga olgan holda tashkil qilinadi. Bularga tashkiliy, texnikaviy, sanitariya–gigiena, tabiiy-iqlim omillari kiradi.

Tashkiliy omillar ishning tashkil etish shakli intizom, mehnat jarayoni ustidan qilinadigan nazoratning holati, mehnat muhofazasi, ishchi xodimlarning kasbiy tayyorgarlik darajasi, texnik omillar jarayonlarini mexanizasiyalash va avtomatlashtirish darajasi, boshqaruvda elektron–hisoblash texnikalarida kompyuterlarni qo'llash, himoyalash vositalarining sozligi va etarligi kiradi.

Sanitariya-gigiena omillari ish joyining sanitariya holatiga javob berish-bermasligi, erganomik omil mashina va uskunalarni inson bilan o'zaro harakatda bo'lganda mashina elementlarining mos kelishi. Bunda texnikani tezlik parametrlariga tegishli, ishchi organlaridan kelayotgan ma'lumotlar hajmi, ish joyining tashkil etilish darajasi, boshqarish organlarining qulay joylashganligi operator o'rindig'ining konstruksiyasi kiradi.

Psixofiziologik omillar-mehnatning og'irligi va qizg'inligi, jamoadagi psixologik vaziyat, ishchilarning bir-biri bilan o'zaro munosabati, jismoniy zo'riqish, asabiy-psixik zo'riqishlash mehnat sharoitining inson organizmiga ta'siri o'rgangan holda quyidagilarni amalga oshirish kerak:

-ishda bajarilayotgan jarayonlar tez va tez talablar chegarasida va harakatlantiruvchi maydonning eng qulay doirasida amalga oshirish:

-ishlab chiqarish binolarida havo muhitini tekshirish;

-ishlab chiqarishdagi metrologik omillarini aniqlash;

-mahalliy va umumiy titrashni aniqlash;

-ishlab chiqarishdagi shovqin darajasini aniqlash;

-ish joyininig yoritilganligini aniqlash;

-nurlanganlikni tekshirish;

-havo almashuvini tekshirish.

Kompyuter xonalarida ishlaganda mehnat sharoitlarini yaratishdagi eng ko’p qo’yiladigan xatolarga quyidagilar kiradi:

1. Ish joylarni yetarlicha katta emasligi.
2. Xona harorati va namligi talab kilinadigan me’yorlarga mos kelmasligi.
3. Xona va ish joylarni etarlicha yoritilmaganligi.
4. Monitordan chiqayotgan past chastotali elektromagnitni maydonida nurlanishning ko’p darajada ajralishi.
5. Ish vaqtini va dam olish vaqtlarini to’g’ri taqsimlanganligi.

Kompyuter operatorlari, dasturchilar va boshqa hisoblash texnikasi ishchilari shovqin, elektr toki, statik elektr kabi fizik, xafli va zararli fizik omillar ta’sirida bo’ladi.

Ko’pgina hisoblash texnikasi bilan ishlovchi hodimlar aqliy zo’riqish, ko’rish va eshitish analizatorlarini zo’riqishi, emotsional zo’riqish kabi psixofizik omillar ta’sirida bo’ladilar.

Toliqish paydo bo’lishi ish paytida markaziy asab tizimida paydo bo’ladigan o’zgarishlarga bog’liq. Masalan kuchli shovqin rang ajratishni qiyinlashtiradi, ko’rish o’tkirligi, yorug’likka moslashishni pasaytiradi, axborot qabul qilishni qiyinlashtiradi va 5-12 foizga ish unumini pasaytiradi.

Hisoblash texnikasi bilan ishlovchi ishchilar tibbiy tekshiruvdan o’tkazilganda ish unumdorligi pasayishdan tashqari shovqin eshitish qobiliyatini ham pasaytiradi. Kombinasiyalashgan zararli omillar ta’sirida ko’p vakt qolish kasbiy kasallanishga olib kelishi mumkin.

Elektr qurilmalari ya’ni kompyuterning barcha qurilmalari inson uchun xavfli hisoblanadi. Chunki kompyuterda ishlayotganda inson tok kuchlanishi ta’sirida bo’lgan qismlarga tegib ketishi mumkin.

Elektr qurilmalarning spesifik xavfi: bu elektr o’tkazuvchilar, izolyatsiyasi shkastlanishi natijasida tok ta’siriga tushib qolgan kompyuter korpusi Elektr tokining ta’siri faqat tok inson tanasidan o’tganda seziladi. Elektr shikastlanishidan himoyalanishda elektr qurilmalari to’g’ri joylashtirilishi, elektr o’tkazuvchi sim va kabellarni to’g’ri ulanishi muhim o’rin egallaydi.

Ish joylarida statik elektrning razryadli toki ko’proq kompyuterning biror bir elementiga tegib ketish natijasida xosil bo’ladi. Bunday razryadlar insonga xavf tug’dirmaydi, yoqimsiz ta’sirdan tashqari kompyuterni ishdan chiqishiga olib keladi. Simlar izolyatsiyasi shikastlanganda tok ta’sirini kamaytirish uchun ish xonalarining pollari bir qavatli polivinil xloridli antistatik linolium bilan qoplanishi lozim. Himoyalashni boshqa usuli ionlashtirilgan gaz bilan zaryadlarni neytrallash.

Kompyuter xonalarining kattaligi u erda ishlovchi xodimlar va kompyuterlar soniga mos kelishi zarur. Ish joylarini tashkillashtirishga, yana xarorat, yorug’lik, havo tozaligi, shoviqindan himoyalanganlik parametrlari hisobga olinadi.

Sanitar me’yorlariga ko’ra bir ishchi uchun ish joyining xajmi 15 $m^3$, ish maydoni esa 4,5 $m^2$ dan kam bulmasligi kerak. Xonaning balandligi poldan shiftgacha 3-3,5 m bulishi kerak.

Kompyuter xonalarida odatda yon tomonlama tabiiy yoritilganlik qo’llaniladi. Tabiiy yoritilganlikda shimol yoki shimoliy-sharqqa qaratilgan yorug’lik darchalaridan foydalanish kerak, bunda tabiiy yoritilganlik koefisenti 1,2-1,5 % kam bo’lmasligi shart.

Kompyuterlarni podvallarda joylashtirish ruxsat etilmaydi.

Kompyuter xonalari va ish joylarida tabiiy yoritilganlik qo’llanishi zarur. Boshqa xollarda esa sun’iy yoritilganlikni qo’llash mumkin.

Ish xujjatlari joylashgan stol usti yoritilganligi 300-500lik bulishi kerak. Yorug’lik manbaini shunday joylashtirish kerakki, bunda yorug’lik ko’zni

qamashtirmasligi kerak, ko'rish maydonidagi yorug'lik manbaining yorqinligi 200 kd /$m^2$ oshmasligi kerak.

Kompyuter joyini shunday joylashtirish kerakki, bunda tabiiy yorug'lik iloji boricha yondan tushishi lozim.

Kompyuter stolining balandligi iloji boricha 680-800 mm bulishi kerak.Ish stoli oyoklar uchun balandligi 600 mm, eni 500 mm dan kam bo'lmagan, chuqurligi tizza darajasida 450 mm dan kam bo'lmasligi, uzatilgan oyoq darajasida 650 mm dan kam bo'lmasligi kerak.

Ekran monitori ko'zdan eng uzog'i bilan 600-700 mm bo'lishi kerak, lekin xarf va shriftlarning o'lchamiga qarab 500 mm dan yaqin bo'lmasligi kerak.

Xonalarni rangli jihozlanishi ishni sanitar-gigiena sharoitlarini yaxshilashga qaratiladi, ish unumini oshishiga hizmat qiladi.Xonalarni bo'yalishi inson asab tizimlari, kayfiyatiga va oxir-oqibat ish unumiga ta'sir etadi.

Kompyuter xonalarini rangini texnik jihozlar rangi bilan bir xil rangda bo'yash maqsadga muvofik. Xonalar va jihozlar ranglari yumshoq bo'lishi va yaltiroq bo'lmasligi lozim.

### 4.2. Favqulodda vaziyatlar sodir bo'lish ehtimolligini oldindan bilish va baholash.

Favqulotda vaziyatlar tushunchasiga xar xil aniqliklar bilan aytish mumkin. Ko'pincha favqulotda vaziyatlar me'yorida insonlar xayotiga kechishiga va faoliyatini ma'lum xududda me'yorida ketishga ta'siri avariyalar katastrofalar ekologik yoki tabiiy ofatlar natijasida, epidemiya, epizootiey, epifititoteylar, urishlar oqibatida ko'p sonli qurbonliklarga iqtisodiy zararlarga olib kelishi bilan xarakterlanadi. Favqulotda vaziyatlar tashqaridan tasodifan, tasodifiy sabablarga ko'ra axolini stressga olib kelish xollari, ijtimoiy-ekologik va iqtisodiy talofatlar, insonlarni qurbon bo'lishlari, har xil salbiy oqibatlar ya'ni buzilishlar yong'inlar.

Favqulotda vaziyatlarni oldindan bilish tabiiy ofatlar, avariyalar va xalokatlar vaqtida yuz beradigan olatlar va sharoitlarni taxminlab aniklashga asoslangandir. Bunda, uncha to'liq va aniq bo'lmagan ma'lumotlar asosida favqulotda xolatlar sodir bo'lish extimoli bor hamda favqulodda vaziyatlarning xarakteri va masshtabi

baxolanib, favqulotda holatlar oqibatlarini bartaraf etishga qaratilgan ishlarning xarakteri va xajmi taxminan belgilanadi. Xozirgi vaktda seysmik rayonlar, sel okimlari, suv bosimlar sodir bo'ladigan, qor ko'chishi va boshqa ko'chishlar sodir bo'lish xavfi mavjud bo'lgan joylar aniqlangan. Shuningdek, katta xalokatlarga va avriyalarga olib kelishi mumkin bo'lgan sanoat korxonalari xam belgilangan. Bu uzoq muddatli oldindan bilish deb tushiniladi.

Oldindan bilish vazifasiga favqulotdagi holatlarda sodir bo'lish ehtimoli vaqtini aniqlash masalasi ham kiradi. Bunday aniqlashning qisqa muddatli oldindan bilish deb tushiniladi. Buning uchun hozirgi vaqtda quyosh aktivligi siklining o'zgarishi to'g'risidagi statik ma'lumotlardan, yerning sun'iy yuldoshi yordamida olingan ma'lumotlardan, xamda meterologik, seysmik, vulqon, sel oqimi va boshqa stansiyalarning ma'lumotlaridan keng foydalaniladi. Masalan, bo'ronlar, dengiz bo'ronlari, vulqonlar otilishi, sel oqimlarining bo'lish ehtimoli, meterologik yer yo'ldoshlari yordamida aniqlanadi. Er qimirlashlarni sodir bo'lish ehtimoli seysmik rayonlarda suv tarkibini kimyoviy taxlil qilish, tuproqning elastiklik, elektrik va magnit xarakteristikasini o'lchash, kuduklardagi suv satxi o'zgarishini kuzatish, hayvonlar holatini kuzatish orqali aniqlanishi mumkin. Katta o'rmonlardagi va er osti torf yog'inlarining yashirin o'choklari samolyot yoki yer yuldoshi yordamida infrakizil nurlar orqali tasvirga olish asosida aniqlanadi.

Oldindan bilish va baholash ma'lumotlari birlashtirilib, taxlil asosida xulosalanadi va favqulotda xolatlarda qutqaruv va avariya-tiklash ishlarini olib borish buyicha tadbirlar ishlab chiqiladi. favqulotda xolatlarning ta'sir darajasini kamaytirish, uning zararli faktorlaridan ximoyalanishga qaratilgan tadbirlar ko'p bosqichli sistemadan iborat bulib, quyidagilarni o'z ichiga oladi: doimiy o'tkaziladigan tadbirlar. Uzok muddatli oldindan bilish ma'lumotlari asosida amalga oshiriladi. Ularga qurilish montaj ishlarini kurilish normalari va qoidalari asosida amalga oshirish; xavf tugrisida axoliga xabar berishning ishonchli sistemasini ishlab chiqish; ximoya inshootlarini qurish va aholini SHXV bilan ta'minlash; radiasion, bakteriologik va ximiyaviy kuzatishni, razvedkani hamda laboratoriya tekshirishlarini tashkil etish; favqulotda xolatlar vaqtidagi harakat

qoidalari bo’yicha aholini umumiy hamda majburiy ukitish; sanitar-gigienik va proflaktik tadbirlar o’tkazish; AES ni qurmaslik, kimyoviy va sellyulozakogoz va shu kabi potensial xavfli obyektlarni xavfsiz zonalarda kurish favqulotda xolatlar oqibatlarini bartaraf etish rejalarini ishlab chiqish, uni material va moliyaviy ta’minlashni tavshkil etish va boshqa shu kabi tadbirlar kiradi.

Favqulotda xolatlar sodir bulish extimoli aniqlangan vaqtdagi himoya tadbirlari jumlasiga oldindan bilish ma’lumotlarini aniqlashtirish bo’yicha kuzatish va razvedka sistemasini ishlab chikish; axoliga favqulotda xolatlar to’grisida xabar berish sistemasini tayyor holatga keltirish; iqtisodni va ijtimoiy hayotni davom etishining maxsus qoidalarini joriy etish, favqulotda holatni e’lon qilish; yuqori xavflilikdagi obyektlarni (AES, zaharli va portlashga xavfli ishlab chiqarish va b.) neytrallashtirish, ularda ishni to’xtashish va ularni ko’shimcha mustaxkamlash yoki demontaj qilish; avariya-qutkaruv xizmatini tayyor xolatga keltirish va aholini qisman evakuasiya kilish kabi tadbirlar kiradi. Ushbu tadbirlar majmuasidan ma’lumki ayrim tadbirlar uzoq muddatli oldindan bilish ma’lumotlari asosida bajarilib, ularni amalga oshirish uchun ko’p yillar talab etiladi. Ayrim tadbirlar esa qiska vaqt ichida tez amalga oshiriladi. Bunday tadbirlar qisqa muddatli oldindan bilish ma’lumotlari asosida amalga oshiriladi. Hozirgi vaqtda fan-texnika taraqqiyoti, mutaxassislar favqulotda xolatlar sodir bo’lish vaqtini va joyini oldindan yuqori aniqlikda aytib berish imkoniyatiga ega emas.

Avariyalar, halokatlar va tabiiy ofatlar okibatlarini bartaraf etish, mamlakatning avariya-kutkaruv xizmatini doimiy tayyor xolatini ta’minlash xamda ishlab chiqarish korxonalarida avariyalar va xalokatlarni oldini olishga qaratilgan chora-tadbirlarni bajarilishi ustidan nazorat kilish maqsadida Uzbekiston Respublikasida favqulodda holatlar komiteti tuzilgan.

Kechiktirib bo’lmaydigan ishlar jumlasiga esa yonginni lakalizasiyalash va uchirish, konstruksiyalarni mustaxkamlash, kutkaruv ishlarini amalga oshirish maksadida kommunal-energetik setlarni, aloka va yullarni tiklash, odamlarga sanitar ishlov berish, dezaktivasiyalash va degazasiyalash ishlarini amalga oishirish kabi vazifalar kiradi.

Qutqaruv va kechiktirib bulmaydigan ishlar jumlasiga axolini barcha turdagi vositalar bilan ta’minlash, jumladan, ularni xavfsiz joylarga joylashtirish, ozik-ovkat va suv bilan ta’minlash, tibbiy yordam kursatish xamda material va moliyaviy yordamlar berishni amalga oshirish kabi vazifalar ham kiradi. Ikkinchi bosqich vazifalariga avariyalar, xalokatlar va tabiiy ofatlar yuz bergan rayonlardagi axoli faoliyatini ta’minlash masalalari kiradi. Bu maqsadda turar joylarni tiklash yoki vaqtinchalik turar joylar barpo etish, energiya va suv ta’minotini, aloqa liniyalarini, kommunal xizmat obyektlarini tiklash, zararlanish o’chog’iga sanitar ishlov berish, aholiga oziq-ovqat mahsulotlari hamda birlamchi ehtiyoj buyumlari bilan yordam ko’rsatish ishlari amalga oshiriladi. Ushbu bosqich nihoyasida evakuasiya qilingan aholi o’z joylariga qaytariladi va xalq xo’jalik obyektlarining ishlashi tiklanadi. Ayrim favqulotda xolatlarning sodir bulishi oldindan aniqlanishi mumkin. Bunday xolatlarda amalga oshirilishi lozim bo’lgan barcha ishlar oldindan ishlab chiqilgan reja asosida amalga oshiriladi. Rejada asosan ikki xil ko’rinishdagi tadbirlar belgilanadi. Birinchi guruxdagi tadbirlar aholini himoyalash maqsadida amalga oshiriladi. Bu tadbirlarga aholiga xavf to’g’risida ma’lumot berish va xabar berish; himoya vositalarining tayyor xolga keltirish; boshqarish sistemalari va vositalarining tayyorligini tekshirib kurish; SHXVlarini aholiga tarkatishga tayyorlash va tarkatish; tibbiy proflaktika, sanitar va epidemiyaga qarshi tadbirlarni o’tkazish; evakuasiyaga tayyorlanish va talab etilgan sharoitlarga xavf tahdid soladigan rayonlarda aholini evakuasiya qilish kabi vazifalar kiradi. Ikkinchi guruhdagi tadbirlarga favqulotda xolatlarning xavfli va zararli faktorlarini bartaraf etishga karatilgan vazifalar kiradi. Bu tadbirlarga xalq xo’jaligi obyektlari ishini to’xtatish yoki ish rejimini o’zgartirish; energiya, suv, gaz sistemasi ish rejimini uzgartirish yoki vaktincha tuxtatish; mavjud injenerlik inshootlarini mustaxkamlash yoki qo’shimcha qurish; yonginga karshi tadbirlar utkazish; xavfli rayonlardan material boyliklar va chorva mollarini olib chiqish; oziq-ovqat, oziqa xom ashyosi va suv manbalarini ximoyalash kabi ishlar kiradi. Favqulotda xolatlar sodir bo’lganligi to’grisida xabar olingach, birinchi navbatda belgilangan ma’lumotlarni tug’riligi tekshirilib, qo’shimcha axborot va ma’lumotlar olish

bo’yicha tadbirlar amalga oshiriladi. Chunki, turli xil favqulotda xolatlarning xar xil sharoitlardagi oqibatlari turlicha bo’lishi mumkin. Shu sababali, dastlab, favqulotda xolatlar ta’sirida yuzaga kelishi mumkin bulgan ikkilamchi, uchlamchi va x.k. xavfli faktorlar aniklaniq, keyingagina kompleks tadbirlar amalga oshiriladi.

## 4.3 Ekologik barqarorlik va rivojlanish.

Barqaror rivojlanish inson va jamiyat hayotini tashkil etishning yangi modasi bo’lib, biosferada yuzaga kelgan ekologik vaziyat muammolarini kishilik jamiyatining barcha jihatlari bilan har tomonlama hal etish kerakligininig yangi yo’llarini izlasa olib keldi. Barqaror rivojlanish uchun jamiyat kishilari ongli ravishda ekologik vazifalarni har kuni, har bir bosqichda amalga oshirishni talab qiladi, ya’ni yaratilgan texnologiya muhitga o’zining ijobiy ta’sir etishi yoki unga muhtoj salbiy ta’sir etmasligi kerak, shundagina insonlar bexavotir yashadilar, mehnat bilan shug’ullanadilar, vatani ravnaqi yo’lida ko’proq o’ylaydigan bo’lib qoladilar. Havfsizlikni saqlab turli barqaror rivojlanish yo’lidan boraverishni garantiyasi ekanligini inobatga olgan holda barcha mamlakatlarning fuqarolari ongli ravishda tabiatga ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo’lishlari talab etiladi. Agarda biz hozirgi vaqtda bizlarni tashvishli hodisalar chetlab o’tib o’z yo’limizda rivojlanaveramiz, barqarorlik o’z-o’ziga saqlanaveradi, mamlakat kelajagi esa o’z-o’zidan ta’minlangan degan fikrda bo’lsak biz siyosiy, fuqaroviy kaltabinlikdan boshqa narsa emasligini yaqqol ko’rinib qoldi. Chunki qo’shni mamlakat yohud biron-bir mintaqada tinchlik bo’lmasa biz ham bemalol yashay olamsligimiz aniq.

Barqaror rivojlanish shartlari va taraqqiyot kafolatlari avvalo quyidagilarga uzviy bog’liq holda vujudga kelishi mumkinligini 1997 yilda I.A.Karimov o’zining “O’zbekiston XXI asr bo’sag’asida havfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlaroi va taraqqiyot kafolatlari” deb omlangan asarida aytib o’tgan edi:

1. Ma’naviy qadriyatlar va milliy o’zlikni anglashning tiklanishi;
2. Davlatchilikni shakllantirish va mudofaa qobiliyatini mustahkamlash;
3. Demokratik mintaqalarni va fuqarolik jamiyati asoslarini shakllantirish;

4. Bozor munosabatlarining qaror topishi va mulkdorlar sinfining shakllanishi;

5. Kuchli ijtimoiy siyosat va yaholi ijtimoiy faolligining ortishi;

6. Jo’g’rofiy-strategik imkoniyatlar va tabiiy xom-ashyo resurslari;

7. Inson salohiyati, ijtimoiy va ishlab chiqarish infrasturukturasi;

8. Keng ko’lamli o’zgarishlar va hamkorlik kafolatlari;

9. Jahon hamjamiyati bilan hamkorlik;

10. Ekologik muammolarning echimini topish;

Demak, fan oldida siyosiy, ma’naviy, ma’rifiy, iqtisodiy, davlatchilik va ko’plab yo’nalishlar bo’yicha ro’y beradigan o’zgarishlarni oldindan aytib berish kabi kafolat beruvchi aniq dasturlar asosida ish yuritishga to’g’ri keladi. Insoniyat XXI asrda o’ziga-o’zi kafolat yarata olmasa, aql-zakovat asri bo’lishi noosfera g’oyalariga tayangan holda rivojlanadi va havfsiz jamiyat ko’ra oladi degan fikrdamiz. Ushbu qo’llanmada rivojlanishning dolzarb ba’zi muammolar haqidagi yangi qarashlar bilan tanishib olasiz. Jahon sivilizasiyasi XX asrda yuqori darajada rivojlanishida davom etdi, hozirgi kun odamlari insoniyat tarixija uchramagan taraqqiyotga o’tdi, fan-texnikani inson aql-zakovati yuqori cho’qqilarga ko’tardi, inson kosmosni o’zlashtirdi. Jahondagi 50 dan ortiq davlatlar rivojlangan, texnika taraqqiyoti olg’a qarab siljishlarga yordam beradigan darajaga bordi, inson uchun ekologik va biologik yashash sharoiti yaratildi. Insonlarda dunyoning ishlari yil sayin ko’proq chegaralarni tan olmaydigan va hamma yoki ko’p xukumatlarda birgalikda munosabatda bo’lishi talab qiladigan jarayonlar tomonidan shakllantirilyapti. Demokratiyalashtirish, erkinlashtirish, iqtisodiyotning ochiqligi, havfsizlik muammolariga munosabatlarning bir-biriga yaqinlashuvi butun jahondagi ko’pchilik davlatlar va halqlarning ichki va tashqi siyosatlarni belgilab bormoqda.

XX asrda butun dunyoda insonning yashash tarzi o’zgardi. Odamzod o’z ho’jaligida mehnat qilishidan ishlashgan, jamoada va nazorat ostida mehnat qilishga o’tdi, 9 ta davlatda mardikor bo’lib ishlovchilar umumi soni 66 % ga etdi. Qishloqdan shaharga ko’chish 3 % dan 28 % ga 2000 yilda 46 % ga etib bordi, bu

jarayon O’rta Osiyoda keyingshi yillarda keng avj olmoqda, ish axtaruvchi va ish beruvchilar o’rtasida kelishmovchiliklar kelib chiqishi natijasida to’palanglar ongli ravishda ro’y bersa revolyusion tayziiq kelib chiqishi mumkin. Demak barqaror rivojlanish XXI asr sivilizasiyasining yangi asrda davom etadi, insoniyatni turmush va mehnat faoliyatida juda katta o’zgarishlar ro’y beradi.

Ikkinchi muhim masala – ijtimoiy va ma’naviy muammolardir. Uning mohiyati shundaki, odamlar o’z hulqi-atvorlarining normalarini o’zgartirmog’i darkor. Axir, buning uchun muayyan aziyat ha chekmoq kerak, say’-xarakatlar qilmoq lozim, ba’zi bir ma’muriyatlarga ham borish lozim bo’ladi. Ekologik muammolarni hal qilish ijtimoiy, iqtisodiy, demografik muammolarni hal qilish bilan chambarchas bog’liqdir. Ekologik da’vat-dastavval ijtimoiy va madaniy rivojlanishni emas, iqtisodiy rivojlanishni cheklash demakdir. Ekologik da’vatga javob bermoq uchun iqtisodiyotda uni tig’lantirish va xo’jalik faoliyati olib beriladigan hududlarni qisqartirish lozim. Masalan, Rossiya uchun buning ma’nosi shuki, bu erda faqat o’zlashtirilgan hududlargina rivojlantirilishi ekosistemaga ega bo’lgan hududlarni va birinchi navbatda odam qadami etmagan o’rmonlarni saqlab qolmoq darkor. Yangi sharoitlarda yangicha ahloq prinsiplari amal qilishi lozim. Ahloqiy prinsiplar esa juda vaqt davomida shakllanadi. Mehnatni hudoning jazosi deb qabul qilishnibas qilib, hayotdan kuzatilgan maqsad o’rnida qabul qila boshlash uchun G’arbiy Ovro’paga yuzlab yillar zarur bo’ldi. Rossiyada bunaqa evrilishi hali ham sodir bo’lgani yo’q. Shuni ta’kidlamoq kerakki, halqaro hamjamiyat ekologik tanazzul havfini XX asr 40-yillaridayoq anglay boshlagan edi. BMT o’zining birinchi ekologik tadbirini 1949 yilda o’tkazgan edi – o’shanda tabiatni asrash bo’yicha halqaro konferensiya o’tkazilgan edi. Biroq BMT ning tabiatni himoya qilishga yo’naltirilgan faoliyatdagi burilish nuqtasi sifatida atrof-muhit muammolariga bag’ishlangan Stokgolm konferensiyasini (1972) hisoblash mumkin. Ayni shu konferensiya ekologiya muammolarining hamma jihatlariga birvarakay yondashibhal qilishga asos soldi. Konferensiya ishining bevosita yakuni tevarak muhit haqidagi deklarasiyaning qabul qilinishi bo’ldi. Deklarasiyadagi fikr-mulohazalar va qoidalar keyinchalik tabiatni asrash bo’yicha qabul qilingan

ko'pgina halqaro konvensiyalarda o'z aksini topdi. Deklarasiyadan tashqari, Stokgolm konferensiyasi ishtirokchilari inson tevaragini qurshagan muhitga munosabat masalasidagi tadbirlar Rejasini qabul qildilar. Rejada nafaqat tabiatni asrash bo'yicha Xalqaro huquqning turli jihatlari bo'yicha tavsiyanomalar bor edi, balki ularni amalga oshirishning tashkiliy formalari ham belgilab berilgan edi. Stokgolm konferensiyasi ko'pgina davlatlarning ichki siyosatiga ham ta'sir ko'rsatdi. Stokgolmdan keyin ommaviy tarzda davlatlarning ekologik dasturlari ishlab chiqila boshlandi, ularni amalga oshirish mexanizmlari yaratila boshlandi. U bilan birga tevarak muhit muammosiga yondashishida yakdillilik va bir xillik yo'q edi. Har qaysi davlat ularni o'zicha hal qilishga, hal qilganda ham, muammoning biror jihatgagina e'tibor berib hal qilishga intilardi. Biroq eng asosiysi – aniq-ravshan, puxta o'ylangan mafkuraning yo'qligi edi. Bunday mafkura davlatlarning hamma hatti-xarakatlari bir o'zanga yo'naltirishga imkon berardi va shu asosda jahon jamoatchiliginini insoniyatning global problemalarini hal qilishga yo'llash mumkin edi. Nazariy konsepsiya sifatida u 80-yillarning oxiriga kelib shakllandi va o'sha kezlaridayoq "barqaror rivojlanish" degan nomni oldi. Birinchi marta bu tushunchani 1987-yilda tevarak muhit va rivojlanish bo'yicha Halqaro Komissiya muomalaga kiritgan edi. 1992-yilda Rio-de-Jeneyroda BMT ning tevarak muhit va rivojlanish bo'yicha konferensiyasida 179 davlatdan kelgan 8 ming delegat Barqaror rivojlanish konsepsiyasini yakdillik bilan ma'qulladi. Bu xujjat bugungi kunda jahon hamjamiyati tomonidan insoniyatning XXI asrdagi rivojlanishining bosh yo'li sifatida qaralmoqda. Konferensiyada qabul qilingan Deklarasiyaning uchinchi moddasida yaxshi ifodalargan. Undan parcha keltiriamiz: "Rivojlanish huquqi shu tarzda amalga oshirilmog'i kerakki, u hozirgi va bo'lg'uvchi avlodlarning rivojlanish va tevarak-atrof muhitga bo'lgan ehtiyojlarini qanoatlantirishga mos kelmoqlari shart. Konferensiya tavsiyalarida ta'kidlanishicha, barqaror rivojlanishga o'tish jahon hamjamiyatidan uchta strategik vazifani hal qilishni talab qiladi. Jahonning rivojlangan mamlakatlarida sanoat va iste'molning o'sishini cheklash (rivojlangan mamlakatlar asosiy resurslarni iste'mol qiluvchilar va muhitni asosiy bulg'ovchilar hisoblanadi); aholi

o’sishini cheklash, ayniqsa, rivojlanib kelayotgan mamlakatlarda; qashshoq va badavlat mamlakatlar o’rtasidagi tengsizlikning chuqurlashishiga yo’l qo’ymaslik. SHuni ta’kidlamoq kerakki, “barqaror rivojlanish” atamasi ko’pgina bir-biriga zid talqinlarni tug’dirmoqda, V.I.Danilov-Danilyan, K.YA.Kondratev va b.q”) qarashicha, barqaror rivojlanish konsepsiyasida ekologik tanazzulning ko’lamlari va jiddiyligi etarli baholanmagan, shuning uchun unda ustivor o’nalishlar noto’g’ri belgilangan. Ularning fikricha, gap barqaror rivojlanish to’g’risida emas, balki biosferaning barqarorligini saqlab qolish to’g’risida bormog’i kerak. Negaki, biosferaga ko’rsatilayotgan antropogen bosim allaqachon yo’l qo’yish mumkin bo’lgan ekologik chegaradan chiqib ketdi. N.N.Moiseev ham bu konsepsiyaga muayyan darajada ishonqiramay qaraydi; u ham b“arqaror rivojlanish” atamasini ancha-muncha siyosiylashtirilgan atama deb hisoblaydi. Ya’ni u jamiyat va tabiatning koevolyusiya sharoitlarini (birga uyg’unlikda rivojlanish) ta’minlashga qodir bo’lgan jamiyatga o’tish strategiyasini bildirmog’i kerak. Bunday konsepsiya asosida ilmiy asoslangan taqiqlarni shakllantirish strategiyasi yotmog’i darkor. Bu taqiqlarga jamiyat uzoq vaqt mobaynida asta-sekin o’tadi, negaki, jamiyat o’zining an’anaviy dunyoqarashi vajidan tez sur’atda amalga oshiriladigan ijtimoiy qayta qurishlarni qabul qilolmaydi. Mutlaqo ayonki, “barqaror rivojlanish” atamasining bunday talqini allaqachon keng muomalaga kirib ulgurgan talqindan tubdan farq qiladi. Uning ko’zlaydigan maqsadi faqat iqtisodiy echimlarni topishdan iborat emas. Biroq bularning barchasi N.Moiseevga barqaror rivojlanish g’oyasini “olamga yangicha qarashni o’zlashtirishyo’lidagi birinchi qadam” deb hisoblashga halaqit bergani yo’q.

Barqaror rivojlanish konsepsiyasi atrofidagi bahs va munozaralar o’qtin-o’qtin turli-tuman siyosiy nayranglarga ham aralashib ketadi. Bu nayranglar ko’pincha muammoning demografik jihatlari tufayli maydonga keladi. Gap shundaki, konsepsiyaning mohiyati – rivojlangan mamlakatlar tomonidan resurslarni iste’mol etish borasida o’z-o’zini cheklanmoq kerak, rivojlanayotgan dunyo esa biosferaga demografik bosim o’tkazishni kamaytirmog’i (aholi sonini qisqartirmog’i) zarur. Bu esa bizning mamlakatimizda ko’pincha “TMK va xalqaro

milliy kapitalning” Rossiya aholisining sonini 50-70 million odamga keltirish haqidagi talabi deb qaraladi. Bunday xomhayollarning be’maniligini A.B.Veber “Erkin fikr” jurnalida juda ishonchli tarzda ko’rsatib berdi.

Barqaror rivojlanishning ekologik jihg’ati o’z ichiga quyidagilarni oladi: hozirgi va kelgui avlodlar uchun o’unday real imkoniyatlarni saqlab qolmoq kerakki, ular bu imkoniyatlar yordamida o’zlarining asosiy hayotiy ehtiyojlarini qondira olsinlar; ekologik havfsizlikni ta’minlash, kam chiqindilik ishlab chiqarishni rivojlantirish, yopiq sikl bo’yicha chiqindisiz texnologiyalarga o’tish, biotexnikaning yangi manbalaridan foydalanishga o’tish, tabiatni asrashning ma’muriy, iqtisodiy va huquqiy usullarini mukammallashtirish, biologik xilma-xillikni saqlab qolish, ekologik-tarbiyaviy ishlarni ekologik-ahloqiy kodeksni ishlab chiqish va uning talablariga rioya qilish.

Barqaror rivojlanishning ijtimoiy aspekti ochlik va qashshoqlikni ildizi bilan quritishni, bolalar, qariyalar va nogironlarga g’amxo’rlik qilishni, maktabgacha va maktab ta’limi va tarbiyasini, sayyoradagi amma odamlar uchun oliy va maxsus o’rta o’quv yurtlarida o’qish imkoniyatlarining mavjudligini taqozo qiladi. Barqaror rivojlanishga urushlarning oldini olmasdan, baxsli muammolarni faqat va faqat tinch vositalar yordamida hal qilish yo’liga o’tmasdan erishib bo’lmaydi. Uni ta’minlash uchun halqlar va mamlakatlar sanoat, qishloq ho’jaligi, ilm-fan va madaniyat borasida ikki tomonlama va ko’p tomonlama hamkorlik asosida sheriklik qilmoqlari, BMTning tinchlik o’rnatish va tabiatni asrash borasidagi faoliyatiga ko’maklashish zarur. Barqaror rivojlanish informasion jihatlari fang va texnikaning juda yuksak darajadagi rivojini taqozo etadi. Shuningdek, ularning yutuqlarini amalda joriy qilish, fuqarolarning tahsil darajasini oshirish, ommaviy axborot vositalarning haqqoniyligi, halq ho’jaligi va madaniyat sohasini kopyuterlashtirish, barqaror rivojlanish maqsadlari va vazifalarini targ’ib qilishda elektron vositalardan ommaviy tarzda foydalanish zarur. Ko’rinib turibdiki, “barqaror rivojlanish” tushunchasi ko’p qirrali tushuncha. Bu tushuncha rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlar uchun bir xil qimmatli ega emas. O’zaro murosai madorasiz bu vazifani hal ilib bo’lmaydi. Hozirgi zamon sharoitida

iqtisodiyotning o’sishi beqiyos darajagi farovonlikka olib kelishi va badavlat ozchillikni haddan ziyod qudratli qilib yuborishi mumkin. Shuning o’zi qashshoqlarga ham, badavlatlarga ham tahdid soladi, negaki, muvozanatni buzadi va qaltis vaziyatlarni tug’diradi. Rivojlanish va iste’molning bunday modeli badavlatlar uchun barqaror bo’lolmaydi va qashshoqlar ham bu yo’lni takroran o’ta olmaydi.

Barqaror rivojlanish g’oyasi Rossiya Federasiyasida o’z tarafdorlari va muholiflariga ega. Shunga qaramay, u allaqachon davlat tomonidan tan olindi. 1994 yilda Rossiya Federasiyasi Prezidentining Farmoni bilan atrof-muhitni hisoya qilish va barqaror rivojlanish bo’yicha ho’jalik strategiyasi qabul qilindi (1994 y). Bu hujjat barqaror rivojlanish konsepsiyasidan kelib chiquvchi muammolarni qadam-ba-qadam hal qilib borishni taqozo etadi. Birinchi bosqichda o’tkir ijtimoiy va iqtisodi muammolarni hal qilishga, shuningdek, ho’jalik faoliyatidagi ekologik cheklashlarga qattiq rioya qilishga ustivor ahamiyat beriladi. Ekologik tanazzul hududlarida atrof-muhitni sog’lomlashtirish bo’yicha dasturlarni ishlab chiqish va asta-sekin holati nochor hududlarda sharoit sog’lomlashtirish bo’yicha tadbirlar belgilash va bu tadbirlarni amalga oshirishning tashkiliy asoslarini barpo etish ko’zda tutilmoqda. Bu yana shuning uchun ham muhimki, ekologik jihatdan havf-hatar tug’ilib qolishi mumkin bo’lgan darajaning eng so’nggi nuqtasiga etib bordi. Keyingi bosqichda iqtisodiyotda, sanoatning texnologik yangilanishida, sturuktura sohasida o’zgarishlar amalga oshiriladi, ijtimoy-iqtisodiy jarayonlar ekologiyalashtirish boshlanadi. Mamlakat hududida ekologik shoyistalikka erishish, birinchi navbatda, tabiat imkoniyatlardan oqilona foydalanish hisobiga ta’minlanadi va unga jon boshiga sarflanadigan nisbiy xarajatlarni kamaytirish evaziga erishiladi. Undan keyin butun jahon hamjamiyatining tabiat bilan o’zaro aloqasini uyg’unlashtirishga asta-sekin o’ta borish nazarda tutiladi. Iqtisodiy rivojlanish ehtiyojlari sanoatning o’sishi jarayoniga yonilg’i-energetik hamda mineral resurslarga boy hududlarni jalb etishni ob’ektiv zaruriyatga aylantiradi, ammo ekologik havfsizlik nuqtai nazaridan ayni shunday qilish qatiyan mumkin emas. Najot faqat bir narsada – ishlab chiqarishni tubdan zamonaviylashtirish

kerak, prinsipial jihatdan butunlay boshqacha sturukturaga ega bo'lgan iqtisodiyot barpo etish lozim, Rossiya eksportida hom-ashyoning ustun turishidan voz kechmoq darkor, jamoatchilik ongini ekologiyalashtirish shart. Bularning hammasi juda-juda murakkab vazifalar. Insoniyatning barqaror rivojlanishlari harakati oxir-pirovardida aql-idrok sohasi (noosfera)ning shakllanishiga olib keladi, tabiat bilan uyg'unlikda yashaydigan insonning ma'naviy qadriyatlari va bilimlari milliy hamda individual boylikning asosiy me'yorlari bo'lib qoladi. Dunyodagi barcha davlatlar shunaqa modelni qabul qilsa va quyidagi prinsiplarga og'ishmay amal qilsagina, sayyorada barqaror rivojlanish maydonga kelishi mumkin:

- Erni emirish hisobiga moddiy boyliklarni son-sanoqsiz miqdorda jamg'arishdan nafsni tiygan holda, faqat eng zaruriy miqdordagina moddiy boyliklarga erishmoq lozim (noosfera prinsipining birlamchi qadami);
- Biosfera barqaror holatga qaytarish;
- Ishlab chiqarish va iste'molning yangi ijtimoiy-iqtisodiy modeliga o'tish;
- Er aholisining miqdorini barqarorlashtirish o(ilada ikkitadan ortiq farzand bo'lmasligi lozim);
- Hozircha inson qo'li tegib ulgurmagan tabiatning hamma qismiga qo'riqxona maqomi berish;
- Tabiat boyliklaridan tejamkorlik va samaradorlik bilan foydalanish;
- Urushlar va qurolli to'qnashuvlardan voz kechish, kuch ishlatmaslik;
- Ishlab chiqarish yopiq texnologiyaga ko'chirish;
- Hamma davlatlar va halqlarning tenghuquqligiga erishish, bir yoki bir guruh davlatlarning butun dunyo ustidan hukmronlik qilish mafkurasidan voz kechish;
- Jahon halqlarining o'ziga xos madaniyatlarini asrab qolish va rivojlantirish; ularning dinlarini hurmat qilish.

Jahon tizimining barqaror rivojlanishi dunyodagi hamma davlatlarga bog'liq. Kurrai zamin – bizning hammamizning uiyimiz. Uning uchun mas'uliyat hamma halqlar va davlatlar zimmasiga baravar taqsimlanishi kerak. SHu munosabat bilan muayyan bir ko'rsatkichning zarurligi borgan sari ayon bo'lib qolyapti. Bu

ko'rsatkich butun jahon sistemasining yoki biron-bir alohida olingan mamlakatning barqaror rivojlanishi qay darajada ekanini ko'rsatib bermog'i zarur bo'ladi. Rossiya olimi A.P.Fedetov darajasini raqamlarda o'lchashning ma'qul bir yo'lini taklif qildi. Bu – barqaror rivojlanish indeksidir. A.P.Fedetov 80-yillarning oxiri uchun amalga oshirgan hisob-kitoblar quyidagi ko'rsatkichlarni bergan edi:

A.P.Fedotov tomonidan taklif qilingan yana bir umumlashgan ko'rsatkich ahamiyatiga ko'ra yuqoridagi ko'rsatkichdan qolishmaydi. Bu har qaysi mamlakatning o'z hududida noshudlik bilan ho'jalik yuritgani uchun moddiy javobgarligidir. A.P.Fedotovning fikricha, biosferadan foydalanganlari uchun jahon mamlakatlari renta to'lamoqlari kerak – axir, uylarda yashaydigan odamlar kommunal xizmatlar bilan bir qatorda uy maydonining ijarasi uchun ham haq to'laydilar-ku? Antropogen bosimining quvvati va indeksi kattaroq bo'lgan mamlakatlar ko'proq miqdorda renta to'lamoqlari kerak. Dastlabki hisob-kitoblar ko'rsatyaptiki, jahonning yirik mamlakatlari uchun bir yillik renta haqi ancha-muncha katta bo'lmog'i – bir necha o'n milliarddan yuzlab dollargacha bo'lmog'i mumkin. Bu yo'l bilan to'plagan mablag'lar ayrim mamlakatlar va mintaqalarga inson qo'li tegmagan tabiatni asrash, atrof-muhitni sog'lomlashtirish borasidagi tadbirlari uchun berilishi mumkin. A.P.Fedotov tomonidan ishlab chiqarilgan barqaror jahon tizimi va uning miqdoriy sifatlarining modeli halqaro ekologik tashkilotlarning juda yuksak bahslariga sazovor bo'ldi. Ular barqaror rivojlanish konsepsiyasiga yangi nafas baxsh etishi mumkin, uni muhim konstruktivlar bilan boyitmog'i mumkin, biroq buning uchun jahon hamjamiyati bularning hammasini shunchaki navbatdagi bir nazariya deb emas, amaliy ishlarida yo'l ko'rsatadigan muhim dastur deb qabul qilmog'i kerak.

## 4-bob bo'yicha xulosa.

Har bir tizimni ishlab chiqish jarayonida uning xavfsizlik masalalari albatta ko;rib o'tiladi. Bunda tizimga tashqi omillarning ta'siri, tizim ishlashi uchun sharoitlar, xavfsizlik jihatlari birinchi o'rinda ko'rib o'tiladi.

Bu bitiruv malakaviy ishida qilingan intellektual mulk obyektlarini kataloglashtirish va dasturiy ta'minoti tizimida favqulotta vaziyatlar sodir bo'lish

ehtimolligini oldindan bilish va baholash, ekologik barqarorlik va rivojlanish, kompyuter xonalarida ish joyini tashkil etilishida qo'yilgan asosiy talablar ko'rib o'tildi.

## Xulosa.

Intellektual mulk obyektlarini kataloglashtirishda quyidagi vazifalar bajarildi:

-Intellektual mulk obyektlari o'rganildi.

-Jahonda Intellektual mulk obyektlarini kataloglashtirilgan dasturiy tizimlari va kataloglashtirish usullari tahlili o'rganildi.

-O'zbekiston Respublikasida Intellektual mulk obyektlariga oid hujjatlar tahlili amalga oshirildi.

-ST.9 ST.60 ST.80 standart va MARC21 formatlari metama'lumotlari taqqoslab o'rganildi.

-ARMAT++ tizimida yuqorida o'rganilgan metama'lumotlar yordamida yangi ishchi sahifa yaratish algoritmi ishlab chiqildi.

-Intellektual mulk obyetlariga oid kitoblarni ARMAT++ dasturida kataloglashtirish ko'rib o'tildi.

-Elektron katalogning funksional va tashkiliy tuzilmasi ishlab chiqildi.

-Qidirish, chiqarish, statistika masalalari sxemasi ishlab chiqildi.

-Foydalanuvchining elektron katalogdan foydalana olishi uchun foydalanuvchi yo'riqnomasi yaratildi.

Xulosa o'rnida shuni aytish lozimki, mazkur ishlab chiqilgan Intellektual mulk obyektlarining, kitoblarining elektron katalogidan istagan foydalanuvchi patent olishi uchun foydalanishi mumkin. Bu elektron kataloglar foydalanuvchiga istagan intellektual mulk obyektlari ma'lumotlarini tezda topishga yordam beradi. Shuningdek elektron kataloglardan foydalanuvchilar masofadan turib ham foydalanishlari mumkin.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

**Normativ-huquqiy hujjatlar**

1. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2006-yil 20-iyundagi “Respublika aholisini axborot-kutubxona bilan ta’minlashni tashkil etish to’g’risida”gi PQ-381-sonli qarori.

2. Axborot-kutubxona faoliyati to’g’risida: O’zbekiston Respublikasining Qonuni. 2011 yil 13 aprel. //Xalq so’zi. - 2011. - 13 aprel.

3. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2002- yil 20- fevraldagi “Ilmiy-tadqiqot faoliyatini takomillashtirish to’g’risida"gi № UP-3029 sonli farmoni.

4. O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2017 yil 12 yanvardagi “Kitob mahsulotlarini chop etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ’ibot qilish bo’yicha komissiya tuzish to’g’risida”gi farmoyishi

5. 2011-yil 23-fevraldagi 1487-sonli “2011-2015-yillarda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari asosida axborot-kutubxona va axborot-resurs xizmatini yanada sifatli takomillashtirishning chora-tadbirlari to’g’risida”gi qarori

6. O’zbekiston Respublikasi birinchi Prezidentining “Axborot erkinligi prinsiplari va kafolatlari to’g’risida”gi Qonuni

7. Axborotlashtirish to’g’risida: O’zbekiston Respublikasining Qonuni. 2003 yil 11-dekabr. // Xalq so’zi.-2004.-11 fevral

8. Axborot-kutubxona faoliyati to’g’risida: O’zbekiston Respublikasining Qonuni 2011 yil 13 aprel.//Xalq so’zi.-2004.-20 may

9. “Elektron kutubxona to’g’risidagi namunaviy nizomni hamda axborot-kutubxona va axborot-resurs markazlarida va kutubxonalarda to’liq matnli elektron axborot-kutubxona resurslari fondini yaratish reja-jadvalini tasdiqlash haqida” O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2011 yil 5 iyuldagi 198-sonli qarori

10. O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2002 yil 6-iyundagi 200-sonli “Kompyuterlashtirishni yanada rivojlantirish va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish chora-tadbirlari to’g’risida”gi qarori

## Asosiy va qo'shimcha adabiyotlar

11. Randall K. Barry. Important elements in the MARC 21 bibliographic format. USA 2015.

12. Rahmatullayev M. A., Karimov U. F., Islomova H. E. Korporativ axborot-resurs markazlarining avtomatlashtirilgan tizimi elektron katalogi ma'lumotlar bazasini shakllantirish. Uslubiy qo'llanma.-Toshkent.:2012.-112 b.

13. Karimov U. va boshq. Korporativ-axborot-resurs markazlarining avtomatlashtirilgan tizimi (KARMAT): Uslubiy qo`llanma /U. Karimov, M.A. Rahmatullayev, A.Sh. Muhammadiyev, J. Atajanov, M.P. Savochkin. – T.: Toshkent davlat yuridik institut nashriyoti, 2009. - 79 b.

14. Каримов У. Ахборот-кутубхона, ахборот-ресурс марказлари ва кутубхоналар учун дастурий таъминот: Корпоратив ахборот-ресурс марказларининг автоматлаштирилган тизими (KARMAT-M) //Электрон кутубхона тармоқларида илмий-техникавий, илмий-таълимий ахборотлар яратиш ва улардан фойдаланиш: Тўплам. – Т.: Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти, 2009. - Б. 32-39

**Internet saytlari**

15. http://wipo.int

16. http://clarivate.com

17. http://google.translate.com

18. http://ima.uz

19. http://lex.uz